

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY
FAOLIYATGA O‘RGATISH**

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

I kurs

Toшкент-2020

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

«Tasdiqlandi»

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

_____ N.X.Rahmonqulova

2020-yil “ _____ ” _____

BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLIYATGA O‘RGATISH

O‘QUV – USLUBIY MAJMUUA

Toshkent – 2020

O'quv – uslubiy majmua Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: Xasanova Sh.T. - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi.

Taqrizchilar: M.Э.Ахмедова - Низомий номидаги ТДПУ “Педагогика” кафедраси мудири п.ф.н., доцент
Н.Ш.Абдуллаева - Мактабгача таълим муассасалари рахбар ва уларнинг малакасини ошириш институти "Мактабгача ва муסיкий таълим" кафедраси мудири,п.ф.н


Ushbu o'quv-uslubiy majmua Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv uslubiy kengashining 2020yil “ ” _____ -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

MUNDARIJA

I.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	5
II.	NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLAR	6
III.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLAR	9
IV.	SEMINAR MASHG‘ULOT MATERIALLARI	20
V.	KEYSLAR BANKI	112
VI.	MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI	133
VII.	GLOSSARIY	135
VIII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	117
IX	ISHCHI DASTUR	146

МОДУЛНИ ЎҚИТИШДА ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН ИНТЕРФАОЛ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИ

“MUAMMOLI VAZIYAT” metodining tuzilmasi



“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Jadvalni to‘ldiring

Savol	Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish yo'llari va vositalari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

“T – sxema” metodi

Pedagog:

yangi mavzuni bayon qiladi va ta'lim oluvchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang'ich ma'lumotlarni beradi;

topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so'raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;

vaqt tugagach ta'lim oluvchilardan izohlarsiz o'z fikr – mulohazalarini o'qib eshittirishlarini aytadi;

barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

Ta'lim oluvchi:

mavzuni diqqat bilan tinglaydi;

o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;

berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi;

yakuniy xulosasi bilan o'tirganlarni tanishtiradi;

reglamentga rioya qiladi.

Kutiladigan natija: ta'lim oluvchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'ladi.

“T” sxema asosida mustaqil faoliyatni tashkil etish.

+ (ha, ijobiy)	- (yo'q, salbiy)

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning mohiyati. Ushbu uslub o‘quv predmeti mavzularini yodga olish, biron - bir mavzu bo‘yicha pedagog, tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish, shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratishga yo‘naltirilgan.

Metodning maqsadi. Mashg‘ulotda o‘tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan karash, shuningdek o‘z bilimlarini bir tizimga keltira olishga o‘rgatish.

Metodning qo‘llanishi: o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o‘quv predmetining biron bir bo‘limi tugallanganda) o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta’lim oluvchilarning-bilimlarini tekshirib olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu uslubni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoya shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo‘ladi.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

- tinglovchilarni guruhlariga (sharoitga karab) ajratadi;
- tinglovchilar mashg‘ulotni o‘tkazishga qo‘yilgan talab qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a’zolariga tarqatiladi.
- tinglovchilar yakka tartibda o‘tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo‘yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;
- tinglovchilar tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o‘zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo‘lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);
- pedagog tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalarni o‘qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to‘g‘ri izoxni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo‘lsa) tanishtiriladi;
- har bir tinglovchi to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo‘ladilar, o‘z-o‘zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

“Tushunchalar tahlili” metodidan bir darsning o‘zida dars boshlanishida o‘tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilarning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egallaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin

Tushunchalar	Mazmuni
grammatika	
o‘zlashtirish	
bola	
lug‘at	
nutq	
muloqat	

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi

Ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi. Mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength) – kuchli tomonlari.

W – (weakness) – zaif, kuchsiz tomonlari.

O – (opportunitu) – imkoniyatlari.

T – (tnreat) – to‘siqlar .

“Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo’yicha ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metod.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo’yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo’lishlari kerak, aks holda, yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so’nishiga, o’zlariga bo’lgan ishonchlarining yo’qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo’llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o’rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo’llarini topish, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholash, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

Bu metod 1963 yilda Garvard universitetining professori Andryus tomonidan biznes siyosati muammolariga bag’ishlangan xalqaro konferensiyada birinchi marta taklif etilgan. Dastlab bu metod mavjud vaziyat haqidagi bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo’llangan. U o’rganilayotgan ob’ekt, vaziyat yoki jarayonning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, ob’ektni o’rab turgan tashqi muhit bilan bog’liq xavf xatarlarni aniqlashni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan. Bu metodni ta’lim jarayonida qo’llash ta’lim oluvchilarda tahlil qilish va xulosa chiqarish ko’nikma va malakalarini shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladi.

Metodni qo’llashga qo’yiladigan talablar - SWOT –universal tahlil metodini umumta’lim maktablarida qo’llash uchun pedagoglar ham, ta’lim oluvchilar ham ma’lum bir tayyorgarlikdan o’tgan bo’lishi, ya’ni bu metodning maqsadi, qo’llanilish holatlari haqida to’liq tasavvurga ega bo’lishi lozim. Bunda o’rganilayotgan ob’ekt

yoki masalaga taalluqli bo‘lgan ichki va tashqi faktorlarni ajratish, ijobiy va salbiy omillarni ajrata olish malakalari shakllangan bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, tahlilini o‘tkazish jarayonida ijtimoiy, siyosiy, madaniy muhitdagi o‘zgarishlarni hisobga olish talab etiladi.



Kichik guruhlarda ishlash metodining tuzilmasi

Kichik guruhlarda ishlash metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.

Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.

Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.

Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

Kichik guruhlar baholanadi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining afzalligi:

o‘qitish mazmunining yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;

muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;

vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;

o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining kamchiliklari:

ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;

barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;

guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;

guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;

belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna:

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
--------------	---	---------------------

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:

pedagog ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;

dars maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;

har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;

navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, pedagog tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Ijodiy faoliyatga o'rgatish maqsad va vazifalari

Ijodiy faoliyat turlari. Bolalarni xar tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning ahamiyati.

Reja:

1. Ijodiy faoliyatga urgatish metodikasi fanining asosiy maqsadi
2. Ijodiy faoliyatga urgatish metodikasi fanining vazifasi
3. Maktabgacha yeshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda fanning urni.

Ijodiy faoliyatga urgatish fanining asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ijodiga raxbarlik qilish uchun amaliy bilim va ko'nikmalar berish. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni» va «Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi» asosida MTM da ijodiy mehnat tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, bolalarni kul mexnati faoliyatiga raxbarlik qilishdan iboratdir.

Ijodiy faoliyatga urgatish fanining vazifasi MTMda bolalarni kul mexnatiga badiiy mexnatga qiziqishlarini uyg'otish, mehnat orqali hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirish; maktabgacha yeshdagi bolalarda mehnatga nisbatan muhabbatni tarbiyalash va kasbga yo'naltirish; bolalarda ijodiy ko'rgazmalar, o'yinlar uchun atributlar yasashga xohishlarini uyg'otish; qog'oz, karton kabi materiallarning xususiyatlari bilan tanishtirish; mehnat qilish madaniyati malaka va ko'nikmalarini tarbiyalash; buyumlarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish, tayyorlash texnologiyasini o'rgatish, mahsulotni tejash, buyumlari qoralamasining eskizini va suratini chizishga ish joylarini tartibli saqlashga o'rgatish; bolalarni buyumlar yasash jarayonida oddiy asboblardan foydalanishga o'rgatish hamda badiiy didlarini shakllantirishga, vaqtni tejay olishga, maqsadga muvofiq ishlashga odatlantirishdir.

Ijodiy qobiliyat insonni hayvondan farqlab turadigan bir xususiyatdir. Bu qobiliyat insonga nafaqat hayoti davomida qo'l kelishi va undan foydalanishi mumkin, balki uning ko'rinishini o'zgartirishi ham mumkin.

Bolalar ijodiyoti va uning o'ziga xos tomonlarini tushunish pedagoglardan ko'pgina bilimlarga ega bo'lishni talab etadi. Pedagog san'atda bu faoliyat kanday xarakterga ega, rassom badiiy obrazni yaratishi uchun qanday vositalardan foydalanayapti, uning ijodiy faoliyatining bosqichlari qanday degan savollarga javob bera olishi kerak.

Bolalar atrof-olam bilan tanisha borish jarayonida ularni o'z faoliyalarida ya'ni o'yinlarida, chizgan rasmlarida, loy ishlarida, hikoyalarda va hokazolarda aks ettiradilar. Bolalar tasviriy faoliyatda atrof-olamdan olgan tassurotlarini,

tasavvurlaridagi timsollarni turli-tuman materiallardan va aniq shakllar yordamida tasvirlashga harakat qiladilar.

Bolalar ijodiyotida ijodiy faoliyatning boshlang'ich bosqichida o'ziga xos xarakter xususiyatlari mavjud. Bularga avval o'zlashtirilgan ish usullarini yangicha mazmunda qo'llashda, oldinda turgan vazifalarni yangi usullar orqali yechishni, o'z his-tuyg'ularini turli vositalar yordamida ifoda etishlarida faol va mustaqil ishtirok etishlari kiradi.

Atrof-olamni bolalar tasviriy faoliyatida tushunish ijodiy ko'rinishlar bilan bog'liq emas, balki bola ishlayotgan, ko'rsatayotgan materialning tarkibini aniqlash orqali namoyon bo'ladi. Masalan: qalam va bo'yoqlar qog'ozda iz qoldiradilar, loy yumshoq undan narsalar yasash mumkin. Keyinchalik tasviriy faoliyat va izlanishlarni rivojlantirish uchun bu bosqich kichik ahamiyat kasb etadi, chunki bola bunda tasavvurlaridagi timsolni yaratish uchun yordam beradigan material bilan tanishadi.

Qalamdan qoladigan iz nimanidir ifodalashini tushunadigan bola o'z xohishi va kattalarning taklifiga ko'ra qandaydir predmetni tasvirlashga harakat qilsa, unda bolaning faoliyati tasviriy xarakter tusini olgan bo'ladi. Bolada fikr, maqsad bo'lib, ularni namoyon etishga harakat qiladi. Shu tariqa ijodiy jarayonning birinchi bosqichi fikrning paydo bo'lishi-bola faoliyatida ham hosil bo'ladi. Rassomda fikrning paydo bo'lishi bilan odatda mazmunini va bajarish vositalarini o'ylab boradi, ish uchun odatda uzoq vaqt kerak bo'ladi, bolada esa ko'pincha bu bosqichning hosil bo'lishi kuzatilmaydi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, u shunchalik o'ylagan narsasini tez tasvirlashga harakat qiladi. U hali o'z ishining natijasini va uni bajarish yo'lini oldindan ko'ra olmaydi. Avvaldan o'ylab ko'rish va ishni rejalashtirish tasvirlash jarayoni bilan birgalikda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bolalar ijodiyotida faoliyatlar jarayonida ish mazmunini o'zgartirish hollari tez-tez uchrab turadi. Bola tasvirlayotgan rasmdagi timsollarga umuman taalluqli bo'lmagan detallarni kiritishi mumkin.

Bolalarning tasviriy ijodiyotining o'ziga xos tomonlarini o'rganish uchun pedagogika tarixida bir qator pedagogik va psixologik tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlarning o'rni beqiyos ekanligini e'tirof etgan holda bunday mashg'ulotlar ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishiga ham tamal toshini qo'yishi shubhasizir.

Bolalar rasm, appalikatsiya, loy ishi, qirqib yelimlash mashg'ulotlari davomida nafaqat biror ish bilan ma'lum muddat band bo'ladilar, balki yuqorida aytib o'tganlarimizga qo'shimcha ravishda ularda quyidagilar rivojlanadi va shakllanadi:

- tasviriy san'at sohasiga doir qobiliyatlari aniqlanadi va shakllantiriladi;

- qalam, mo'yqalamni ushlab, loy, plastilin bilan ishlash, qaychida ayrim narsalarni qirqib yelimlash orqali mayda qo'l mushaklari rivojlanadi;
- bola yozuv texnikasini egallashga tayyorlanadi;
- bola tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali diqqatini bir joyga taqsimlay olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, o'tira olishni o'rganadi;
- tabiatni, atrof-olamni kuzatishni, uni asrab-avaylashni ardoqlashni, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadi;
- jamoa bo'lib mehnat qilish, ishini rejalashtira olish, o'rtoqlarini eshita olish va o'zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishlash malakalari shakllanadi;
- xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'ladi va ularni o'z ishlarida ifodalashga o'rganadi.

Ijodkorlik qobiliyati insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning ob'ektiv qonunlari asosida o'z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o'zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongining faol mahsulidir. "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi"ning asosiy mazmunida bolalarning individual xususiyatlari va iste'dodini rivojlantirish vazifasi belgilab berilgan. Xozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rams chizish, loy va plastilin o'yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko'rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalar ijodkorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Ta'lim jarayonida, ertaklar eshitish, har xil rasmlarni ko'rish tufayli bola o'yinchoq yasashdan oddin o'zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta —sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og'zaki ta'siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo'lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin.

Bolalar badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yo'llarini o'rganganda, bolalarga berilgan topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin. Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo'nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: Tarbiyachining (o'zing yasa, bir narsa o'yla, qidirib top, o'zgartir kabi) ko'rsatmalari bo'yicha bolalar pedagog bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar. Ikkinchi bosqichda bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da'vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o'zlashtirgan ko'nikmalarni kombinatsiyalash va o'zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi. Nihoyat, uchinchi bosqich — bolani turli faoliyatda fikrlash bo'yicha mustaqil harakat qilishga, o'z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o'rgatadigan topshiriqlardan iboratdir. Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Tarbiyachining izohi bolalarni qiziqtirishi, buning uchun tarbiyachi goho o'yin elementlaridan, o'yin harakatlaridan foydalanishi mumkin. Bolalar ko'z o'ngida qo'g'irchoqlar paydo bo'ladi. Ular birgalikda tomosha qo'yishni so'raydilar. Bunday ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo'lishi bolalarni suyuntirib yuboradi. O'yinchoqlarning harakatlarini ko'rib, bolalar sevinib ketadilar, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo'ladi. Agar tarbiyachi mashg'ulotda o'yin usulini qo'llayotgan bo'lsa, u mashg'ulot davomida

o'inda qatnashadigan personaj to'g'risida oldindan o'ylab qo'yadi. Masalan, qo'g'irchoq mana shunday personaj rolini bajarib, bolalar qanday ishlayotganligi bilan, topshiriqni kim qanday bajarayotganligi bilan qiziqib ko'rishi mumkin. Keyin u bolalarning hatti — harakatlarini ma'qulaydi, ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga yordam beradi va boshqa shunga o'xshagan ishlarni bajaradi. Mashg'ulotda har doim ham bir xildagi o'yin harakatlaridan foydalanmaymiz, har bir mashg'ulot oldidan bolalarning ruhini ko'taradigan, kayfiyatini yaxshilaydigan tadbirlar tashkil qilamiz. Buning uchun bolalarga she'r o'qib berishimiz, qo'shiq aytib berishimiz, topshiriqlar bo'yicha topishmoqlar aytib, kichkintoylarni qiziqtirishimiz lozim.

Nazorat uchun savollar

1. Ijodiy faoliyatga urgatish metodikasi fanining asosiy maqsadi?
2. Ijodiy faoliyatga urgatish metodikasi fanining vazifasi?
3. Maktabgacha yeshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda fanning urni?

2-mavzu. Qog'ozdan buklash yo'li bilan o'yinchoq yasash ("Origami usuli").

Reja

1. Qog'oz va karton bilan ishlash
2. Qog'oz turlari
3. «Origami» so'zining kelib chiqishi

Qog'oz va karton bilan ishlash. Qog'oz va karton rangi shakli, o'lchami, tekis yoki g'adir-budirligiga qarab maqsadli malakalarni o'stirib borish kerak. O'yinchoklar turli esdaliklar, ko'ylak uchun bezaklar tayyorlash, unda rang va shakllarni uyg'unlashtirish xaqidagi tushunchalar kengaytirib boriladi. Qog'oz va karton bilan ishlaganda andoza, kaychi, yelimdan to'g'ri foydalanish, malakalarni mustahkamlash kerak. Qog'ozni qo'l bilan yirtish, turli shakllar yasashni o'rgatish lozim. Zar qog'ozdan har xil munchoklar, stol teatri uchun personajlar, o'rdakcha, xo'roz, chiburashka qo'g'irchoklarning ko'ylagini gul va naqsh bezaklar bilan bezash, kompozitsiya tuzish, mebellar, qutichalar yasash o'rgatiladi. Undan Qadimgi Misr davlatlaridayok hosh yozish uchun varaklar tayyorlashgan. Papirusning ichki qismlari yupqa plastinkalarda kesiladi, ishqallanadi, shu bilan bir vaqtda ularni suv bilan ho'llab, bolg'acha bilan urib turiladi, chytka tagiga qo'yiladi, keyin quyoshda quritiladi, hosil bo'lgan varaqalarni yopishtirib, o'ramlarga bog'lanadi. Xozirgi kunlarda qog'oz tayyorlash usuli xitoylardan o'zlashtirilgan. Maydalangan o'simlik-paxta, bambuk, somondan quyuq massa qaynatilgan, unga har turli kleylar qo'shilgan. Keyin uni taxtakachlab qog'oz varaqlari tayyorlangan. Xitoydagi qog'oz tayyorlash san'ati keyinchalik Yaponiya va boshqa davlatlarga o'tgan.

XII- asrda kelib ko'chiruvchilar orqali qog'oz Yevropaga yetib keladi. XV-asrda tipografiya kashf yetilishi bilan qog'oz tayyorlash va uni amalda qo'llashda oldinga qadam qo'yildi. XIX asrda turli shakl va sifatli qog'oz tayyorlashda hamma mexanik jarayonlarni bajaruvchi mashinalar yaratiladi. Xozirgi qog'ozni sellyuloza, ignabargli daraxtlardan va bir yillik o'simliklardan tayyorlanadi.

Qog'oz - bu biz har birimiz kunda to'qnashib turadigan, eng kerakli va qiziqarli materiallardan biridir. Biz kunda kitob va gazetalarni o'qiymiz, ko'chalarda yorquin plakatlar, konsertlarda, vistavkalarga bizni taklif qilayotgan afishalarni uchratishimiz mumkin. Agar diqqat bilan atrofga nazar tashlasak, qog'ozning har xil buyumlar yasash uchun ham ishlatilganini ko'ramiz.

Qog'oz bilan ishlash uchun qaychi bilan kley kerak, xolos. Qog'oz berilgan shaklni saqlab turish, o'yinchoqlar yasash uchungina emas, boshqa kundalik xayotimizda kerak bo'ladigan buyumlar yasash imkonini beradi. Biz bolaligimizda qog'ozni kashf etganmiz, uning xayratlanarli xususiyatlaridan zavqlanganmiz. Mohir qo'llarda oddiy daftar varag'i gulga, likopchaga, suvda suzadigan qayiqchaga aylanadi. Oxirgi paytlarda qog'oz mutaxassislarni o'zining dekorativ hususiyatlari bilan diqqatni jalb qilmoqda. Uning rangi, turli xususiyatlari xar xil dekorativ ishlarda katta ahamiyatga ega, ayniksa, mozaikada. Pedagoglarning hisoblashicha, qog'oz qanchalik xilma xil va rang-barang bo'lsa, shunchalik u bilan ishlash qiziqarliroqdir.

Ishning asosiy usullari.

Buklash, g'ijimlash, qayirish va to'g'rilash, qirqish va yirtish, hajmli modellar, kub, silindr, konus.

Qog'oz turlari

Papirus qog'ozi. Papirus qog'ozi archa o'yinchoklarini bezashda gul va boshqa dekarativ buyumlar tayyorlashda ishlatiladi.

Foto qog'oz. Foto qog'oz nurga sezuvchan qog'oz, u fotografiyalarda ishlatiladigan qog'oz tayyorlashda negiz bo'lib hizmat qiladi.

Ba'zi al'bomlarda, bloknotlarda, papkalarda foto qog'oz rasm qog'ozining rolini o'ynaydi. Nur tushirilgan qog'ozni mayda ko'rgazmalar yasash uchun ishlatish mumkin.

Gazeta qog'ozi. Bu qog'oz qisqa vaqt foydalaniladigan ko'rgazmalar uchun moslangan. U oqlanmagan sellyuloza (25%) va yog'och massasi (75%) dan tayyorlanadi, og'irligi – 15 gm.

Kitob va jurnal qog'ozlari. Bosmaxona qog'ozi kitob va jurnallar nashr etish uchun ishlatiladi. Notalar uchun qog'oz, tipografiya qog'ozi illyustratsiyalar uchun, ofset nashriyoti uchun, estalik qog'ozi – metal gravyuralarni tushirilish uchun ishlatiladi.

Kartografiya qog‘ozi. Bu qog‘oz kartalar tushirish uchun mo‘ljallangan selliyuloza va yog‘och tolasidan ishlanadi. U uch turda ishlab chiqariladi: geografiya, gidroografiya va bosmaxona kartalari uchun.

Muqovalar uchun qog‘oz kitob, jurnal, papkalar uchun muqovalar tayyorlash uchun ishlatiladi, shuningdek, jadvallar, qutichalar va applikatsiya ishlari uchun ham yaroqlidir.

Albom qog‘ozi. Albom qog‘ozi deb, zich, qalin muqovalari uchun uncha og‘ir bo‘lmagan (45 dan 80 gr gacha) qog‘oz tushuniladi.

Xatlar yozish uchun qog‘oz. Jadval, kartochkalar, qutichalarni ichidan yopishtirish uchun, quritilgan o‘simliklarni yopishtirish va boshqa maqsadlarda ishlatiladi.

Rasm-chizmachilik qog‘ozi. Jadvallar, kartochkalar, loto, suratlar, geometrik shakllar va boshqa hajmli va tekis buyumlar uchun, karnaval niqoblari, turli maketlar yasash uchun yaroqli.

Kalka qog‘ozi. Bu shaffofrang bilan ishlov berilgan va og‘irligi 40-50 gr bo‘lgan qog‘oz. Uni archani bezatish uchun fonarchalar, sahnani bezatishda, soya teatrida ekran sifatida ishlatish mumkin.

Millimetrli qog‘oz. Og‘irligi 70, 80, 90, 120 va 130gr, sariq, yashil va havo rang qog‘ozdir. Millimetrli qog‘oz jadvallar yopishtirish uchun, tasvirli masshtabini o‘zgartirib nusxa ko‘chirish uchun ishlatish mumkin.

Qog‘oz va kartonni qayta ishlash jarayonida trafaret, shablon va muhr tayyorlash texnikasi. Maktabgacha ta’lim muassasasida har bir o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda bolalarni muvaffaqiyatli ishlashga, qo‘l muskullarini rivojlantirishga o‘rgatib borish zarur. Tarbiyachi har bir o‘tkaziladigan mashg‘ulotiga ijodiy yondashgan holda va o‘z mahoratini ishga solgan holda yangilik yarata olishlari lozim. Bolalar bog‘chasining ilk yosh guruhidan boshlab to tayyorlov guruhigacha ish jarayonlari oddiydan murakkabga qarab boradi. Buning uchun o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda ayniqsa tasviriy faoliyat, rasm, applikatsiya, loy ishlarini yaratishda uctaxonada amaliy ish fanining ahamiyati kattadir. Bolalar bog‘chasida trafaret, shablon asosida chiziladigan buyumlarni, shakllarni chizishga, qirqish, yelimlashga, yasashga o‘rgatiladi.

Trafaret yasash uchun kerak bo‘ladigan ish qurollari:

1. Rangli suratlar;
2. Kalka qog‘ozi;
3. Qoraqalam;
4. Qaychi, pichoqcha;
5. PVAelimi;

6. Dermantin;
7. Karton qog'oz;
8. Klyonkadan foydalanish mumkin;

Trafaret —qalin qog'ozqog'oz, yupqa karton, tunuka, plactmassadan tayyorlanadigan yio'indisi turli murakkablikdagi naqshni yoki biror yozuv takctini tarkib toptiradigan tirqishlar qilingan plactinkadir. Trafaretdan ko'p karra takrorlanuvchi rasmlar, harflar, yozuvlarni olishda foydalaniladi. Trafaretlar qurilishda, devorlarni bezashda, tayyor mahsulotlar, turlarini makirovka qilishda keng qo'llaniladi. Maktab amaliyotida tarfaretlar qalin rasm qog'ozidan tayyorlanib unga rasm, naqsh, harflar aniq chiziqlar bilan tushiriladi. Har bir detal yonidagi qismlar bilan ko'proq birlashishi lozim. Rasm tushirilgan qog'ozga alifmoy yoki moy laki singdiriladi. Lak yoki alifmoy qurigach, qog'ozning uctini talk bilan artib, rasmni o'yib qirqib olishga kirishiladi.

Trafaretni bir necha qavat keraksiz qog'oz solingan taxta uctiga qo'yib, qalamtaroshning uchi bilan olib tashlanishi lozim bo'lgan qismlari qirqiladi. Qalamtaroshni qiyalatib ushlash lozim. Mayda detallarni qirqishda chizmalarni tozalashda ishlatiladigan nayzasimon qirish perolaridan ham foydalanish qulaydir. Trafaretlar hilma hil: bir rangli qismlarni va ko'p bo'yoqli tasvirlarni berishga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Ko'p bo'yoqli tasvirlarda rasm ranglar soniga ko'ra qismlarga ajratiladi. Har bir rangda alohida trafaret tayyorlanadi. Ko'p rangli rasmni bajarishda trafaretlar qo'llanilish tartibiga muvofiq raqamlanadi. Bundan tashqari ularda rasmning ma'lum qismlarini tekshirib turish maqsadida teshiklar qilinadi, bu teshiklar bo'yalmaydi.

Qo'shaloq trafaretlar uzluksiz rasmlarni olish uchun xizmat qiladi, birinchi trafaretda rasmning bir qismi, ikkinchisida esa rasmning birinchisi bilan ulanishini ta'minlovchi qismlari bajariladi.

Teskari trafaret — bu trafaretlar yordamida fon, rasm bo'yaladi, ishlov berilayotgan material rangi saqlanadi.

Trafaret orqali mo'yqalamda bo'yoq beriladi. Bu maqsadda maxsus mo'yqalamlardan foydalanish mumkin. Mo'yqalam bilan beriladigan bo'yoq quyuqroq bo'lishi kerak, aks holda u trafaret tagiga oqib tushishi mumkin. Ko'p rangli rasmlarni bajarishda bo'yoqlar belgilangan izchillikda tartib bilan beriladi.

Trafaret shablon tayyorlash uchun tasvirni chizib olinadi va pichoqda ozgina kesib olib, so'ngra qaychini uzmasdan qirqishga harakat qilinadi. Agar uzib - uzib qirqilsa tasvir noto'g'ri chiqishi mumkin. Trafaret shablon 2 xil usulda bo'ladi:

1. Oddiy trafaret shablon
2. Murakkab trafaret shablon

Oddiy trafaret shablon - deb bir qismdan iborat bo'lgan tasvirga aytiladi.

Murakkab trafaret shablon - deb uch-to'rt qismdan iborat bo'lgan shaklga aytiladi. Har bir bajarilayotgan ishga e'tibor, mehr, did, farosat talab etiladi.

Suyuq shaffof anilin bo'yoqlarni purkash yoki shampun bilan surtish asosida bergan ma'qul. Tampon yasash uchun bir siqim paxtani dokaga solib, mahkam qilib bog'lanadi. Trafaretni qog'ozning uctiga qo'yib uning uctiga bo'yoqqa botirilgan tampon bosiladi. Natijada qog'oz ham, trafaret ham bo'yaladi. Trafaret olinganda qog'ozda qirqilgan shaklning bo'yalgan izi qoladi. Gul solish ishi shu usulda davom etadi. Konturli trafaret bilan ishlaganda quruq rang kukuni yoki ko'mir kukuni tampon qilib o'raladi va uni rasm chiziqlari uctiga bosib - bosib olinadi, buning natijasida qog'ozga tushirilayotgan naqshning zaif konturi hosil bo'ladi, zarur bo'lsa uning atrofini qalam bilan chizib chiqqan ma'qul.

Shablon - butkul qabul qilingan na'munadir. Keramika sanoatida lagan, tarelka, chashkalarni tayyorlashda doira shablon qo'llaniladi Doira va qaytarma shablondan simmetrik shakldagi modellarni yasashda foydalaniladi.

Oddiy, murakkab trafaret va shablon namunalari:

Kartoshka, po'kak va o'chirg'ichdan yasalgan muhrdan foydalanib chizilgan rasmlar.

Qaytarma shablon yordamida model quyidagicha shakllantiriladi: taxtaga o'yilgan shablon o'yig'iga yaxshi ishlangan loy qo'yiladi, qo'yilgan loyning o'lchami bo'lajak modeldan bir oz kattaroq bo'lishi kerak. Shablonni 180 gradusga aylantirib modelning birinchi yarmi hosil qilinadi. Aylana shablon tik o'q bilan birlashadi. o'q taxta o'yig'idagi loyga o'rnatiladi. Shablon modeli o'q atrofida aylantirib yasaladi.

Muhr. Shtamp. Ishlab chiqarishda bosim kuchi bilan detal yasaydigan asbob muhr deyiladi. S'htampning ish sathi tayyorlanadigan detal sathini takrorlaydi. Muhr shtampning bir turidir. U qalin karton yoki rezinadan tayyorlanadi. Turli shakllar o'yib ishlangan karton yoki rezina yog'och plactinkaga yopishtiriladi. Agarda harflar o'yib tushiriladigan bo'lsa, unda harflarning ko'zgudagi aksi tushirilishi kerak. Xom kartoshkaga o'yib ishlangan muhr va shtamplar uzoq muddat chidamaydi. Muhr va shtamplar uchun oddiy bo'yoqlardan ham foydalansa bo'ladi. Bo'yoq paxtaga yoki bir necha qavat taxlangan bintga singdiriladi - bu bo'yoq berish yoctiqchasi xizmatini o'taydi.

Trafaret, shtampni tayyorlash usuli. Bosib tasvir tushirishning eng oddiy usuli kartoshka shtampi bilan bosishdir. Bu usulda murakkab bo'lmagan naqsh kompozitsiyalarini yozuvlarini tushirish mumkin.

Shtamp tayyorlash uchun yirikroq kartoshka tanlanadi. Kartoshkani ikkiga bo'lib, qalam bilan oddiy konturli rasm tushiriladi va uchli pichoq yordamida kartoshka rasm konturi bo'yicha 0,5 sm chuqurlikda o'yiladi. So'ngra kartoshkaning yon tomonlari o'yilgan konturgacha ohicta qirqiladi va keraksiz qism olib tashlanadi, natijada bo'rtib chiqqan joyga bo'yoq surib, muayyan narsa qog'ozga tushiriladi.

Trafaret tayyorlash uchun kerakli shakl namunadan nusxa qog'oz yordamida qalin qog'ozga tushiriladi yoki qo'l bilan chiziladi. Tushirilgan shaklning detallar uchi kichik qaychi yoki qalamtarosh bilan qirqib olinadi. Trafaret tayyor bo'lganda ikkala tasvirni saqlash lozim, chunki undan keyinchalik to'g'ri va teskari iz olish mumkin.

Grafit kukuni yordamida trafaretdan shaklni qog'ozga tushirish uchun 3-4 dan 6m gacha bo'lgan yumshoq qalam qalin qog'ozning ma'lum qismiga quyuq qilib suriladi. Shundan so'ng qalam surilgan joy paxta bilan artiladi, natijada grafit kukun paxtaga o'tadi. Bu paxta toza qog'ozga qo'yilgan trafaret uctidan ohicta yurgiziladi. Natijada qog'ozda trafaretdagi shaklning izi qoladi. Bu to'g'ri tasvirdir. Buning teskarisi ham bo'lishi mumkin. Buning uchun trafaretni tayyorlash vaqtida qirqib olingan qismlar qog'ozning uctiga qo'yilib, chap qo'l bilan bosib turiladi, o'ng qo'l bilan esa grafit kukunli tampon o'rtasidan chetiga qarab suriladi. Natijada atrofi qora bo'lgan oq tasvirga ega bo'linadi.

Trafaretda turli rangni bosish. Bu holda ranglarning qancha bo'lishi nazarda tutilgan bo'lsa, shuncha miqdorda bir hil varaqlar olinadi. Hamma qog'oz orasiga nusxa - qog'oz qo'yib chiqiladi. Eng uctidagisiga asl ayni bir rasmning bir hildagi nusxalariga ega bo'linadi. Har bir qog'ozga qaysi rang berilishini yozib, rasmning shu rang beriladigan qismi qirqib olinadi. So'ngra trafaretni navbati bilan qog'ozning uctiga qo'yib unga tegishli bo'yoq beriladi. Trafaretni qo'yishdan oldin berilgan bo'yoqning quriganligiga ishonch hosil qilinishi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining kata va tayyorlov guruhlarida ko'ngil ochar soatlarini mazmunli o'tkazish uchun shablon yordamidaertak qahramonlarini tayyorlanadi.

«Origami» so'zining kelib chiqishi yapon tiliga mansub bo'lib, ikki ibora "ori" – buklangan va "gami" – qog'oz degan ma'nolarni anglatadi. Origami deyilganda odatda to'rtburchakli qog'ozlarni buklab turli buyum va o'yinchoqlarni yasash tushuniladi.

Origami san'at sifatida ilk marotaba IX-XII asrlarda Yaponiyada paydo bo'lgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bu san'at Yevropa mamlakatlariga ham tarqalib, rivoj topa boshladi. Har qanday buyumlarni yasashning izchil tizimiga ega chizma suratlar sifatida tasvirlash urfga kirdi. Zero, rasmlarga qarab qog'oz buklamlaridan turli buyum o'yinchoqlar yasash 4-5 yoshli bolalardan tortib maktabning boshlang'ich sinfi o'quvchilarining ham tasavvur doirasini kengaytirishi, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirishi shubhasizdir. Bugungi kunga kelib origami alohida amaliy san'at turi sifatida butun dunyoda keng ommalashgan.

«To'tiqush» ni origami usulida yasash.

1. Kvadrat shaklida qog'oz olamiz.
2. Diogonaliga buklaymiz.
3. Buklangan joydan burma hosil qilamiz.

4. Burma bo'ylab 2 uchi birlashtiriladi.
5. Buklangan qog'ozning har bir uchi orqaga qaytariladi.
6. Qaytarilganda avvalgi diogonalidan oshib ketmasligi kerak.
7. Bosh barmoq orasiga kirgizib ko'rsatkich barmoq bilan buklanadi va uning bosh qismi tayyorlanadi.

Qushchaning umumiy shakli tayyor bo'ldi, shu shakldan o'zingiz xoxlagan qushchangizni yasashingiz mumkin. Shakldagi bo'yalgan joylar qirgilsa, to'tiqush dumi, tumshug'idan qaychida ozgina chimdib, ichki tomonga mayda burmachalar hosil qilinib, ko'zi chizib qo'yiladi. To'tiqush tayyor.

«Do'ppi» ni origami usulida yasash.

Kvadrat shaklidagi katta-kichikligi ixtiyoriy qog'ozni olib, diagonal bo'yicha uning markazini aniqlaymiz. So'ngra teng ikkiga buklaymiz, qolgan burchagining biri olinib, markaz tomoni bo'yicha buklanadi, orqa tomoni ham xuddi shunday buklanadi. Buklangan tomoni ichki tomonga qarata buklanib, boshqa burchagini 1 sm qayirib olinadi, pastki qog'ozning burchaklari qayirib, buklanib chiqiladi va chetidagi burchakka kirgizib qo'yiladi. Orqa tomoni ham xuddi shunday bajariladi. Manna, do'ppimiz tayyor, endi uni bezatishimiz kerak. Ingichka mo'yqalamni olib, oq rangga botiramiz, do'ppining to'rt tomoniga garmdori shakli chiziladi. Do'ppilarning gulidagi garmdori shaklining tasvirlanishi bolalar chidamli, qo'rqmas, matonatli, sabrli bo'lishi kabi ma'noni anglatadi. Qizlarimiz do'ppilarni turli ranglardan foydalanib, har - xil gullar bilan bezatib chiqadilar. Bu esa qizlarning doimo guldek ochilib, chiroyli bo'lib yurishlarini ifodalaydi hamda bir yo'la ularning boshlarini oftob issig'idan asraydi. Buvijonlarimizning aytishlaricha, bosh kiyimni juda ehtiyot qilish kerak. Eskiorganda ham tashlab yubormay, undan yana ro'zg'orda yordamchi buyum sifatida foydalanish mumkin. Qizlarimizning do'ppilariga gulni mana bunday chizamiz, gul o'rtasiga sariq rangli nuqta quyib, atrofiga qizil rangda gul yaproqlarini chizamiz. Agar uyingizda do'ppingiz bo'lsa, unga qarab gulni chizsangiz ham bo'ladi. Har xil rangdan foydalanayotganda mo'yqalamni yaxshilab yuvib, salfetkada artib olishni unutmang. Quyida «Origami», ya'ni qog'ozni buklash orqali do'ppi, baliq, to'tiqush, jirafa yasashni bosqichma-bosqich ko'rsatib o'tamiz.

Nazorat uchun savollar

1. Qog'oz va karton bilan ishlash?
2. Qog'oz turlari?
3. «Origami» so'zining kelib chiqishi?

3-mavzu. Applikatsiya xaqida umumiy tushuncha

Reja:

1. Applikatsiyada qirqishni har xil usullari
2. Geometrik shaklli applikatsiyalar.

Applikatsiya xalq amaliy san'atida keng o'rin tutadi. Applikatsiya so'zining ma'nosi - qirib olib yopishtirish demakdir. Bu usulda qog'oz, mato, charm, somon, quritilgan o'simliklar, urug'lar, tashlandiq narsalar, simlar, iplardan foydalanib har xil ishlarni bajarish mumkin.

Applikatsiya - badiiy asarlar yaratishning eng sodda va oson usulidir, bunda tasvirning asosi saqlanadi. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqlar, sovg'alar, devoriy gazetalar, stentlar, ko'rgazmalar va kostyumlarni tayyorlashgina emas, balki kartina, pano, naqshlarni va shu kabilarni yaratishda ham keng qo'llash mumkin. Applikatsiya bundan 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlarda paydo bo'lgan. Applikatsiya bilan kiyim-bosh, turar joylar bezatilgan. Bu ishda ular terimo'yna, namatdan foydalanishgan. Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yoqutlar applikatsiya ishida postloqdan foydalanishgan, bo'yalgan po'stloqdan qilingan applikatsiyalar bilan ular o'tovlarini bezashgan. Xanti-mansi, evenk va boshqa shimol xalqlari applikatsiyada teri, sukno, mo'yna ishlatishgan. Qozoq, qalmoq, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro'zg'or predmetlarini bezashda foydalanishgan. Gazlamadan applikatsiya materiali sifatida ancha keyinroq foydalanila boshlandi. Gazlama parchalarini fon xizmatini o'tovchi materialga tikib naqsh yaratilgan. Gazlamadan yasalgan applikatsiya bilan kiyim-bosh, uy-ro'zg'or predmetlari bezatilgan.

Xozirgi kunda applikatsiya har bir xalq san'atida juda keng tarqalgandir. Applikatsiyaning eng yosh turi flaristikadir. 1960-yilda dunyoda birinchi flaris rassomlar jamiyati tashkil etildi. Applikatsiya bilan shug'ullanish bolalarning dunyoqarashining uyg'un rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Applikatsiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyaning boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tassavurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo'l mexnati, shaklni his qilish, chamalash va rangni sezish qobiliyatini o'stiradi. Rangli qog'oz yoki boshqa materialdan kompozitsiyalar ustidagi ish badiiy didni avj oldiradi. Applikatsiya ishida asosiy material qog'ozdir, dazmollangan va kraxmallangan gazlama bo'laklaridan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda somon, quritilgan o'simlik, urug', danak va shu kabilar ham asqotadi. Qog'oz ishlab chiqarish sanoati qog'ozning rangi va xususiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi 250 navini ishlab chiqaradi. Tolalarning ko'ndalang yo'nalishi bo'yicha qirqilgan qog'oz yopishtirilganda izlar qoldiradi, uzunasiga qirqilganda bir tekis yaxshi yotadi. Ishlaganda qog'ozning bu xususiyatini e'tibordan qochirmaslik kerak.

Kleyster surilganda qog'oz uni shimishini, qog'oz tolalarining ko'ndalangiga uzunligidan ko'proq kengayishini ham unutmaslik kerak. Agarda qog'oz kleyster surilgan zahotiyoq yelimlansa, davom etayotgan shimish va kengayish natijasida

qog'ozda g'ijimlar, izlar paydo bo'ladi. Shuning uchun kleysterda surilgan qog'oz bir oz vaqt yopishtirilmay turishi kerak. Qog'ozning yaltiraydigan marmar, bosma gul tushirilgan, baxmal, kumush-bronza rasm solish va chizmachilik navlari applikatsiya uchun yaroqlidir.

Applikatsiya qilish usuli bilan guruh xonalarini, mehmonxona, oshxonalarini, bolalar ayvonchalari bezatiladi. Bolalar bog'chasi kichik guruxdan boshlab applikatsiya mashg'ulotlari olib boriladi. Kichik guruxdan tayyor qirqilgan shakl beriladi. O'rta guruxdan boshlab bolalarga qaychi beriladi va ishlash mustaqil olib boriladi. Applikatsiyada qog'oz asosiy rolni bajaradi. Applikatsiya ishini bajarishda har xil yelim ishlatilavermaydi. Yelimni uy sharoitida arzon va oson usulda tayyorlash mumkin. Bu yelim klestr deb ataladi. U kraxmaldan quyidagicha tayyorlanadi: bir choy qoshiq kraxmal, 5 choy qoshiq sovuq suvda aralashtirilib olinadi, so'ng yarim stakan suv solib past olovda qaynaguncha kovlab turiladi, qaynashga yaqin olovdan olinadi va sovutiladi, so'ngra ishlatiladi. Applikatsiya ishini bajarish uchun tayyorgarlik ko'rish lozim. Bu quyidagicha bajariladi: syujet tanlash; xomaki chizma; rangli qog'ozlarni tayyorlash; fon tanlash.

Applikatsiya ishining ish qurollari: qaychi, yelim, kalka, pichoqcha, chizg'ich, o'chirg'ich, qora qalam, moyqalam, kapiroovka, flamasterlardan iborat. Applikatsiya ishlari oddiydan tortib mazmunli, kantli, dekorativ, qo'lda yirtish orqali mozaika usulida tabiat materiallaridan (barg, urug', danak, piyoz po'sti, shisha siniqlari tashlandiq simlar va iplar) ham bajariladi. Applikatsiya qilishda oddiy va murakkab qirqish usulidan foydalaniladi. **Oddiy qirqish usuli** bilan yaxlit shakl hosil qilinadi va qirqilgan shakl teng va tekis qirqiladi.

Qog'ozni 5-6 qavat qilib buklab turib qirqishga **murakkab qirqish usuli** deyiladi. Bu usulda qirqishda 1 ta shakl 5-6 marta ko'payib chiqadi.

Applikatsiya qilishda asosiy e'tibor uning umumiy kompozitsiyasiga qaratilishi kerak. Yaxshi o'ylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo'lgan narsalarni joylashtirish – applikatsiya muvaffaqiyatining garovidir. Eng oddiy applikatsiya bu geometrik shakllardan qilinadigan naqshli applikatsiyadir. Avval naqshning xomaki eskizi tuziladi, so'ngra kerakli detallar (geometrik shakllar) o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detaillar tayyorlanib ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl kvadratni olib, uning bir tekis almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib ko'ramiz. Agarda kvadrat boshqa elementlar, masalan uchburchak bilan to'ldirilsa, variant yanada ko'payadi. Ishni boshlash uchun markazni topish simmetriya o'qini o'tkazish va naqsh elementlarini shunga ko'ra joylashtirish lozim. Agarda geometrik shakllar kvadrat yoki aylanaga simmetrik joylashtirilsa, qiziqarli dekorativ naqsh hosil bo'ladi.

Dekorativ applikatsiya - bu naqsh gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlar (barg, shox, qo'ziqorin, qush, mashina, odam, uy va shu kabilar)dan tarkib topuvchi predmetli hodisa, harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo'lishi mumkin.

Geometrik shaklli applikatsiyalar. Bajarilish texnologiyasiga ko'ra applikatsiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikatsiyalardir.

Geometrik shakllar: talabalarning kvadrat, to'g'ri burchak, uchburchak, aylana qog'oz bo'lagi va o'lchov asboblari haqidagi mavjud bilimlarini mustahkamlaydi. Ularning badiiy didini o'stiradilar, doira, kvadratda naqshlar tuzish bo'yicha olingan bilimlarini chuqurlashtiradi. O'quvchilar ayrim predmetlarni detalma-detal taxlil qilib, geometrik shakllarni to'g'ri idrok etishni o'rganadilar. Masalan, archa bir biriga kiygizilgan uchburchakka o'xshaydi yoki yuk mashinasi turli o'lchamdagi to'g'ri burchaklardan, g'ildiragi aylanadan tashkil topkanligini idrok etadilar. Bolalarda "Ko'p-kam", "Uzunasiga", "Ko'ndalangiga", "Ikki qismga qirqish", "Teng qismlarga" kabi tushunchalar mustahkamlanadi. Bolalar ranglar uyg'unligini to'g'ri tanlashni o'rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi.

Geometrik shaklli applikatsiyalarni ham naqshli, predmetli, syujetli applikatsiyalarga ajratish mumkin.

Doira, kvadrat va ovaldan naqshlar yasash. Naqsh detallari: turli o'lchamdagi kvadrat, uchburchaklar tayyorlanadi. Kvadratda naqsh diagonal bo'yicha tuziladibunda shakllarni simmetrik joylashtirish qulay.

Geometrik shakllardan predmetli applikatsiya. Bolalarning predmetlarni fazoviy idrok etishi rivojlanishi kerak. Bizni o'rab turgan narsalar: uy, archa, daraxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

Ko'p rangli applikatsiyalarni qirqish anchagina murakkab ish bo'lib, tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikatsiyani bajarishda fonni tanlash muhimdir. Fon ifodalanadigan predmet xuddi bo'rtib turgandek, yorqin ko'rinadi. Hammasi o'ylangan kompozitsiyaga bog'liq. Fonda joylashadigan detallar rangi ham shunday tanlanadi. Bunda detallarning tabiiy joylashishi va ular o'lchamlarining uyg'unligiga e'tibor berishi kerak. Bu ishlarni bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallarning konturlari oldindan belgilamay qirqiladi; ayrim detallar esa belgilangan natura-qoralamalar bo'yicha qirqiladi. Applikatsiyalarning ifodaliligi va jonliligiga erishishning usullari ko'p. Ayrim detallarning tag qismida kesiklar qilinib yelimlashda boshqa qog'oz qo'yiladi.

Mazmunli applikatsiya. Bu applikatsiya kompozitsiyaga ko'ra oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Murakkab mazmunli applikatsiya ertaklar, xikoyalar va shu kabilarga illyustratsiya sifatida yasaladi. Agarda syujet oddiy bo'lsa, tasvirlarni oldindan belgilamay qirqish mumkin. Bu applikatsiyada ma'lum bir mazmunni ifodalasa bo'ladi. Bu badiiy asar uchun illyustratsiya bo'lishi mumkin. Applikatsiyada manzara va narsalarning hajmini, rangini, soya va yorug'lik tushayotgan tomonini munosib rang berib ko'rsatish mumkin.

Badiiy applikatsiya. Bu applikatsiyada mazmunli ishlarni yaratish faqat mexnatni emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Applikatsiyaga qaratilgan kompozitsiya va elementlar miqdoriga qarab qog'oz tanlanadi.

Kompozitsiya ustida ishlaganda asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi.

Applikatsiyada mozaika usulidan foydalanib predmetli, mazmunli, dekorativ applikatsiya ishlari bajarish mumkin. Mozaikani qaychida yoki qo'lda qirqish usulidan foydalanib bajariladi.

Nazorat uchun savollar

1. Applikatsiyada qirqishni har xil usullari?
2. Geometrik shaklli applikatsiyalar?

4-mavzu. Pape-mashe usuli.

REJA:

1. Pape-mashe uchun zaruriy ashyolar
2. Pape-mashe usulida o'yinchoqlar yasash

Pape-mashe "ivigan", "g'ijimlangan" qog'oz, demakdir. Bunday qog'ozdan kleyster bilan loy va plastilindan yasalgan tayyor model bo'yicha shakl yelimlanadi. Pape-mashedan tayyorlangan o'yinchoqlar, har xil mayda chuyda narsalar yasashning osonligi bilan ajralib turadi. Pape-mashe bilan ishlash jarayoni bolalarda mehnat malakalarining shakllanishiga, turli asbob va materiallar bilan ishlash ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. Pape-mashe bilan ishlaganda steklar, qarmoq ipi, yelim pishirish uchun idish, tayyor mahsulotni bo'yash uchun bo'yoq, mo'yqalamlar kerak bo'ladi. Ish qog'ozni tayyorlashdan boshlanadi. Buning uchun gazeta va o'rash qog'ozlari zarur. Qog'oz namlanadi, biroq ivib ketmasligi kerak. Bir idishda gazeta, ikkinchi idishda o'rash qog'oz turadi. Undan keyin yasaladigan shakl tayyorlanadi. Piyola paner ustiga to'nkarib qo'yiladi. Unga yupqa qatlam yog' (vazelin, o'simlik yog'i) surtiladi. Birinchi ish piyola ustiga faqat suvlangan qog'ozni yopishtirishdan boshlanadi. Shundan keyin namlangan kesma qog'ozlarga kleyster surtib, birin-ketin piyolaga yopishtirib, bittadan oralatib, bir biriga ko'ndalang, bir kesma ikkinchiga yetadigan qilib qo'yib chiqiladi. Poloskalarining eni 1-2 sm, uzunligi esa piyolaning ikkala tomoniga yetib, faner ustiga tushib turadigan bo'lishi kerak. Bunday qog'ozlar ikki qatlam qilinib ochiq joylarni qoldirmay yelimlanadi. Shundan keyin yana ikki-uch qatlam yopishtiriladi, biroq endi poloskalar emas, balki qog'oz parchalari yopishtiriladi. Qog'oz albatta qo'lda yirtilishi kerak, shunday qilinsa bir me'yordagi yelimlangan tekis qatlam hosil bo'ladi. Shunday qilib, piyola ustiga bir necha qatlam (5-6-8) qavat qog'oz parchalari buyumning kattaligiga ko'ra yopishtiriladi. Qog'oz shaklni piyoladan ikki kundan keyin olish kerak. Agarda shakl piyoladan chiqmasa, uni bir oz quritish, pichoq bilan qirqib olish kerak. Chetlarini ohista to'g'rilab, qirqilgan joy yelimlanadi va bir-ikki sutka davomida quritiladi.

Yaxshilab quritilgan pape-mashe shaklning satxi silliq qilib, jilvir qog'oz bilan tozalanadi. Shundan so'ng yasalgan buyumga emulsiya bo'yog'iga PVA yelimi qo'shib mo'yqalam yordamida silliqlab jilo beriladi. Emulsiyalangan shakl quritiladi va jilvir qog'oz bilan tozalanadi. Shundan so'ng u bo'yaladiva bezak beriladi.

Pape-mashening qog'oz massasidan bajariladigan boshqa usuli ham bor. Pape-mashe uchun massa eski qog'ozga yopishtiruvchi va to'ldirgich moddalar qo'shib tayyorlanadi. Tayyorlash usuli oddiy. Qog'ozni mayday qilib burdalab, bir sutka ivitib qo'yiladi. So'ngra uni kiselsimon bir xil massa hosil bo'lgunga qadar qaynatiladi. Sovigan massa kichik-kichik bo'laklarga bo'linib qo'lda siqiladi, quritiladi. Tamoman qurigan massa mayday qirg'ichdan o'tkaziladi. Shundan so'ng qog'oz massaga yelimli suv quyib, narsalar yasashga yaroqli xamir xolatiga kelguncha aralashtiriladi. Bunday massadan karnavallar niqoblari, o'quv qo'llanmalari tayyorlanadi. Pape-mashedan massa tayyorlash retseptlari serob, qog'oz massasi va suyuq duradgorlik yelimini turli to'ldirgichlar: bo'r, loy, yog'och qipidlari, zig'ir moy bilan qo'shibtayyorlash mumkin. Tayyorlangan xamirdan turli xil narsalar yasaladi. Xamir 1-1,5 mm qalinlikda yoyilib, kerakli mahsulot ustiga yopishtiriladi, so'ngra quritib gruntlanadi. Grunt tayyor maxsulotga yupqa qilib surtiladi. U qurigach, uning satxi jilvir bilan sayqallanadi, shundan keyingina moy yoki yelimli bo'yoq bilan bo'yab, mahsulotni chiroyli ko'riniga kelishuchun harakat qilish kerak.

Pape-mashe juda qo'l keladigan ashyo ko'pgina mamlakatlarida keng foydalanadi. Pape-mashe texnikasi yordamida vazalar, patnislar, qutilar tayyorlanadi. Bu mahsulot oliy darajada mustahkam va uzoq vaqt xizmat qiladi.

Pape-mashedan mahsulot tayyorlash – juda uzoq vaqt davom etadigan jarayon, biron bir o'yinchoqlarni tayyorlash uchun sizning bir kuningiz ketadi. Avval osma kosacha qanday kattalikda bo'lishini aniqlab va sharsimon shaklga ega bo'lgan buyumni (koptok) toping. Ish jarayonida koptok dumalab ketaverishi kerak emas, uni yopishqoq lenta bilan mahkamlash kerak. Tayyorlab qo'yilgan qog'ozni uchburchaklarga kesib olish lozim. Gazeta qog'ozini bir idishga solib qo'yamiz, papirus qog'ozini esa boshqa idishga solamiz. Qog'ozning ikki xilini ishlatish tavsiya etiladi. Chunki bunda yopishtirilgan qavatlarini farqlay olish mumkin bo'lsin. Birinchi qavatiga faqatgina suv ishlatiladi. Bu juda muhimdir, bo'lmasa tayyor kosacha koptokka qattiq yopishib qolishi mumkin. Qolgan qog'oz qavatlariga yaxshilab yelim surtiladi. Qanchalik ko'p qavat bo'lsa, shuncha yaxshi bo'ladi. Keyin tayyor mahsulot quritiladi.

PAPE-MASHE USULIDA O'YINCHOQLAR YASASH

Pape-mashe so'zi fransuz rassomining ism va familiyasidir. Rassom birinchi bo'lib xamir va qog'ozni aralashtirib plastilinga o'xshash massa hosil qilgan, bu massani qo'lda g'ijimlash orqali tayyorlanadi.

Tayyorlash usuli quyidagicha:

1 qavat o'rov qog'oz yoki gazetaga oldindan tayyorlangan suyuq xamirni surib chiqamiz va xamir surilgan qog'ozni qo'limizda g'ijimlab maydalab bir xil massa bo'lguncha ezg'ilaymiz. Tayyor bo'lgan massani bo'laklarga bo'lib xohlagan o'yinchoqni yasashimiz mumkin.

O'yinchoq yasash davomida barcha haykaltaroshlik usullaridan foydalanishimiz mumkin bo'ladi. G'ijimlash usuli orqali o'yinchoq yasashdan ko'pincha archa bezaklari yasaladi. Bunda yasalayotgan o'yinchoq ichiga simdan ilgak joylashtiriladi. Yasalgan o'yinchoq qurigandan so'ng qum qogoz bilan ishqalanib, silliqalanadi. So'ngra oq guash yoki tish pastasi bilan bo'yab olinadi. Qurigandan so'ng akvarel bo'yoq bilan bo'yaladi va ustidan lak beriladi. Bu usul orqali sabzavotlar, mevalar, hayvon, parrandalar, qushlar, gullar va boshqa narsalarni yasash mumkin.

Pape-mashe usulida «Lagan» yasash

Hozir pape-mashe usulida lagan yasashni ko'rib chiqamiz. Suvni yaxshi shimadigan ikki xil rangdagi yupqa qog'ozni olib, uni mayda bo'lakchalarga bo'lamiz va yelim, suv tayyorlab olamiz. Lagan sirtiga vazelin yoki moy surtiladi. Oq yupqa qog'oz bo'laklarini suvga botirib lagan ustiga tekis qilib suv bilan yopishtiramiz. Navbatdagi qog'oz qavatida esa, boshqa oq rangdagi qog'oz bo'laklaridan yelimlanadi. Bu o'z navbatida qog'oz qavatlarini yanglishib ketishdan saqlaydi. Bu holat 6-7 marotaba takrorlanadi, oxirgi qavatni yopishtirish oq rangdagi qog'oz bilan tugatilishi kerak. So'ng 3-4 kun yasalgan buyum yaxshilab quritilgandan keyin sirtidagi qog'oz qolip ajratib olinadi. Qolipning ichki qismini tekislab, unga xohlagan nusxani, masalan, paxta guli va boshqalarni chizamiz.

Qog'oz bo'laklaridan sabzavot va mevalar, tarvuz - qovunlar yasash

Tarvuz yasash uchun oddiy havo pufagini olamiz-da uni puflab, dumaloq shakl hosil qilamiz. Havo pufagining sirtiga suvda namlangan qog'oz bo'laklarini bir tekis joylashtirib chiqamiz. Ustidan PVA yelimini surtib suv shimadigan qog'oz bo'laklarini yelimlaymiz. Qog'oz bo'laklari ikki xil qog'ozdan yirtib tayyorlanadi. Navbatma-navbat u yoki bu rangdagi qog'oz yelimlanadi. Avvalo bir qavat suv shimadigan qavatidan oq qog'oz va shu tariqa qavatma-qavat yelimlanadi. Ustki qavatida tekis bo'lishi uchun bo'r maydalanib yelim bilan aralashtiriladi-da surtilib chiziladi: qurigandan so'ng kerakli bo'yoqqa bo'yaladi. Masalan: tarvuzni yashil rangga, qovunni esa sariq rangga va h.k.

Tayyorlash texnologiyasi.

Kerakli ashyolar:

1. Emulsiya bo'yog'i.
2. Sof tuproqdan tayyorlangan loy.
3. Gazeta bo'laklari.
4. Suv, un (kleyster tayyorlash uchun).
5. Oq qog'oz.

6. Qora duxoba, ozgina oq chit, har xil matolar.
7. "PVA" va "Moment" kleylari.
8. Bo'yi 40 sm, eni 2 sm yog'och.
9. Temirli pivo idishi, mix.
10. Mochalka (gubka).
11. Guash, bo'yoq, mo'yqalam.
12. Leska, mayda qum qog'oz.

Avval qo'g'irchoqning boshini yasaymiz. Buning uchun bizga loy kerak bo'ladi. Loydan yasalgan kallani bosh tarafidan pastga qaratib quloqlarining o'rtasidan leska bilan bo'lib olamiz. Shunda kallaning yuz qismi va orqa qismi paydo bo'ladi. Silliqliq faner ustiga yuz tarafini qo'yamiz. Alohida idishda alebastrni suv bilan aralashtirib tayyorlab olamiz. Loydan yasalgan yuz qismiga ozgina yog' surtamiz va tayyorlangan alebastrni quyib qolipni tayyorlaymiz va ochiq havoda quritamiz. Loyning orqa tarafini ham shu yo'l bilan tayyorlab olamiz. Alebastr qotganda so'ng ichidagi loyni olib tashlaymiz va qolip ichiga pape-mashe qilib bir necha kavat kogoz yopishtiramiz. Qog'ozni qolip ichiga yelimlashda oq qog'ozdan bir necha bo'lak yelimlaymiz, chunki bosh qismning usti oq rangda bo'lishi, keyin esa unga tana rangi berilishini hisobga olish kerak. Oldin suv va undan kleyster tayyorlab olamiz. Qolipimiz ichiga 4 qoplam suv bilan qog'oz bo'laklarini, so'ng kleyster bilan gazeta bo'laklarini yopishtiramiz. Kleyster orqali 6 qoplam hosil qilamiz va ochiq havoga bir kunga qo'yib qo'yamiz. Orqa tarafini ham shunday qilamiz. Endi qurigan qolipdagi niqobni olib ustidagi keraksiz qog'ozlarni yirtib tashlanadi. Niqobning chetiga «Moment» kleydan surtib, orqa va oldi qismi yopishtiriladi. Qurigandan so'ng bir-biriga yopishtirilgan joyiga lenta qilib kesib olingan chitni «PVA» yelimi bilan yopishtiriladi. Kallaning hamma joyini oq qog'oz va kleyster bilan 2 qatlam pape-mashe qilinadi. Hosil bo'lgan kalla qurigandan so'ng dahanning pastki tarafidan qaychi yoki bigiz orqali teshiladi va oldindan tayyorlangan yog'ochni (40sm) tiqib, kallaning tepa qismidan qoqib mahkamlanadi va ustidan yana bir marta qog'oz bilan pape-mashe qilinadi. Tayyor bo'lgan kallani bo'yash uchun idishga bo'yoq tayyorlaymiz. Idishga suv, ohak, PVA yelimi solib, yaxshilab aralashtiriladi va qizil, sariq guashdan solinadi. Bo'yoqni odam tanasining rangiga o'xshatishga harakat qilamiz. Kalla mayda qum qog'oz orqali silliqatlanadi va tayyorlangan bo'yoq bilan bosh qism gubkada bo'yaladi. Bir xil qilib bo'yashga harakat qilinadi. Buyoq ikki-uch marta beriladi. Bo'yoq qurigandan so'ng guash orqali qo'g'irchoqning ko'zi, qoshi va boshqa yuz qismlari chiziladi. So'ng qora duxoba yoqi qora matodan soch tayyorlaymiz va kallaning bosh qismiga yelimlaymiz. Shunday qilib qo'g'irchoqning imizning kallasi tayyor bo'ladi.

Qolgan qismini tayyorlash uchun andoza orqali qo'g'irchoq tanasini oq chitdan kesib, tikib olamiz. Tanasidagi ko'krak qismiga gubkadan yarim doira shaklida kesiladi va tikiladi. Yeng qismiga qo'lini tayyor andoza orqali kesib, tikib olinadi va yeng qismiga mahkamlanadi. Tayyor andozadan ko'ylaklar tikib, kiygiziladi. Bosh

qismiga tayyorlangan bo'yoq bilan qo'l, oyoq va bo'yin qismlari bo'yaladi. Qotgandan so'ng «PVA» yelimi bilan yog'ochga yopishtirib qotiriladi.

Osma kosacha yasash.

Kerakli jihozlar:

- gazeta;
- papirus qog'ozi;
- qaychi;
- qog'oz uchun ishlatiladigan idish;
- bita tahsimcha;;
- uchta chashka;
- pufak;
- arqon.

Buyumni tayyorlash usuli: Kerakli o'lchovdagi sharsimon buyumni toping. Koptokcha ish vaqtida dumalamasligi uchun mahkamlab qo'ying. Tayyorlab qo'ygan qog'ozingizdan uchburchaklar qirqib chiqing. Papirus qog'ozini bir idishga, gazeta qog'ozini boshqasiga soling. Birinchi qavatini faqat suvdan foydalanadi, aks holda tayyor buyum koptokga yopishmaydi, qolgan qavatlarida qog'oz kleyga botiriladi. Qavatlar qanchalik ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi.

Qo'g'irchoq tasvirini yasash.

Materiallar, gazeta, papirus qog'ozi, kley, qaychi, birlashtirish uchun karton qog'ozi, bitta tahsimcha, ikkita idish, rangli qog'oz, mato bo'yoqlari, yelim, lak, plastilin.

Ishning borishi: plastilinni yumshatib, yuz shaklini yasashni boshlang. Yuz belgilari kattalashtirib yasaladi, chunki qavat-qavat qog'oz ostida bu belgilar kichiklashadi. Model tayyor bo'lgandan keyin qog'ozdan 7,5sm uzunligidagi to'rtburchak oling. Undan bo'ynini hosil qilamiz.

Qog'ozdan ingichka, uzun ploska yirtib birinchi qavatini suv bilan qoplang. Boshchani plastilin bo'lagi bilan o'rnating. Boshni avval suvga botirilgan gazeta bo'laklari bilan qoplang, keyingi qavatini papirus qog'ozi bilan kleyga ho'llab yopishtiring, boshni ikkiga bo'lamiz. Plastilinni olib tashlab, bo'lagini buklang, yuzini, tanasini rangli bo'yoqlar bilan bo'yang va quriting. Sochlarni qog'oz yoki matodan yopishtirib yasab uni ham yopishtiramiz, uzunligi 10sm li turbochka bo'ynining ichiga yopishtirib daxanidan 2sm uzoqligida kiritib tiklang. 23sm – A dan V gacha, 20sm – S dan daraja bo'yash kerak. Mashinada aylantirib tikib chiqing. Bo'ynini va tagini ochiq qoldiramiz. Qo'lqopning o'ngini o'girib, teshigi atrofiga yoqani tikib chiqamiz, boshini bo'yniga mustahkam qilib yopishtiramiz. Shu tarzda

boshqa persanajlarni ham yasash mumkin. Quyidagi rasmda pape-mashe usulida yasalgan o'yinchoqlardan namunalar berilgan:

Nazorat uchun savollar

1. Pape-mashe uchun zaruriy ashyolar?
2. Pape-mashe usulida o'yinchoqlar yasash?

5-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash.

Reja:

1. Tabiiy va tashlandiq materiallarni to'plash
2. Tabiiy va tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash

Tabiiy materiallar tarbiyachi rahbarligida ekskursiyalarda to'planadi. Ekskursiya uyushtirishdan oldin bolalarga bo'lajak ish namunasi ko'rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko'rib, unda ishlatilgan barg plastinkalarining shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar. Shundan so'ng uyushtiriladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiya marshrutida alohida e'tibor beriladigan ob'ekt (eman, zarang, akatsiya daraxtlari, hasharotlar, ninachi)lar aniqlanadi. Bolalarning e'tiborlari va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan ob'ektning zarur bo'lgan asosiy muhim belgilari va xususiyatlarini ajratishga, to'planayotgan materialni to'g'ri baholashga yo'llaydigan savollar tuziladi.

Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko'tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari bolalarni ajablantiradi. Ular kuzning butun go'zalligini, uning ranglarini, to'kilgan barglar hidi va ular o'zining elastiklik xususiyatini yo'qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo'lib qolganligini ko'radilar. Bolalarning atrof-tabiat bilan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e'tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtda o'simliklarda sodir bo'layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli shaklda bayon etib beriladi: jumladan, o'simlik yangi sharoitlarga moslashib, qishga tayyorgarlik ko'ryapti. Barglarni to'kish bu o'ziga xos himoya turidir, chunki barglar suvni ko'p bug'lantiradi, qishda esa tuproqdan namlik juda kam miqdorda keladi. Shundan keyin bolalarning e'tibori atrofda uchib yurgan kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi. Uchib yurgan hasharotlar ularning tuzilish shakllari mehnat darslarida hasharotlar applikatsiyasini tayyorlash uchun obraz, to'plangan barglar material xizmatini o'tashi kerak.

Bolalar barglarni to'plar ekanlar, ularning ranglari, shakllarini qiyoslashni o'rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligini o'stirishga yordam beradi. To'plangan barglar oldindan tayyorlab qo'yilgan daftar varaqlari orasiga qo'yiladi. Shundan keyin bolalarga barglarning mehnat mashgulotlarigacha rangini yo'qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har bir ekskursiyada bolalarning e'tibori insonning yaratuvchilik mehnatiga albatta jalb etilishi kerak, Ekskursiya oxirida unga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan

bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga kapalak va ninachilar tasviri tushirilgan rasmlarni ko'rish, ularning tanasi va qanotlarining shakli, rangi qandayligiga alohida e'tibor berish topshiriladi.

Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keyingi mashg'ulotda bolalar applikatsiyalarni zo'r ishtiyoq bilan namoyish qiladilar, agarda applikatsiyani o'z istaklariga ko'ra, o'zlari to'plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi. Bunday mashg'ulot quyidagi sxemaga ega bo'lishi mumkin:

1. Mashg'ulot mavzusi va maqsadini aytish.
2. O'tkazilgan ekskursiya bo'yicha suhbat quyidagicha bo'ladi:
 - a) ekskursiyada qaerda bo'ldik?
 - b) qanday daraxtlarni ko'rdik, ularning nomi qanday?
 - v) ularning barglarining shakli bir xilmi?
 - g) qanday hasharotlarni ko'rdik?
3. Namuna tahlili:
 - a) kapalak qanday qismlardan tashkil topgan?
 - b) uning qismlari qanday joylashgan?
 - v) uni tasvirlashda qaysi daraxtlar barglaridan foydalanilgan?
4. Ishni bajarish tartibini aniqlash:
 - a) kapalakning ayrim qismlari (tanasi, qanotlari)ning joylashishini tasvirlash;
 - b) kapalakning tanasi va qanotlari uchun shakli hamda o'lchamlari bir xil bo'lgan barglarli topish;
 - v) ularni qog'ozda joylashtirish;
 - g) ishni amaliy bajarish.
5. Tarbiyachining ishni bajarish usullari haqidagi tushuntirishlari.
6. Applikatsiyani bajarish bo'yicha mustaqil ish:
 - a) kapalakning ayrim qismlarini qog'ozda to'g'ri tasvirlash;
 - b) shakl, o'lcham va bo'yoqlarini to'g'ri tanlash;
 - v) yelimplash ishlarini tartibli bajarish;
 - g) kapalakning ko'z va mo'ylarini to'g'ri tasvirlash;
 - d) ish bajarilgan qog'ozning orqasida barglaridan foydalanilgan daraxtlarning nomlarini yozish;
7. Ishni baholash.

Ijodiy xarakterdagi ishlar. Masalan: «Baliqlardan kompozitsiya tuzish». Tarbiyachi umumiy vazifa beradi, bolalar esa, tarbiyachi namunasi asosida o'z variantlarini izlaydilar.

Tarbiyachi doskaga baliq rasmi tasvirlangan plakatni osib qo'yib, bolalar bilan birgalikda baliq tanasi, baliqning boshi, qanotlari, dumining shakli tahlil qilinadi. Baliq turiga ko'ra uning tanasi, qanot va dumlari har xil bo'lishi mumkinligi aniqlanadi, shuning uchun bu ishda turli tabiiy materiallardan foydalanish mumkin bo'ladi. Shundan so'ng ishni bajarish tartibi aniqlanadi. Avval baliq qismlari uchun material tanlash, uning umumiy tarhini chizish kerak. Shundan keyin qaysi detalning qanday tartibda yelimlanishini, detallarning joylarini aniqlash va so'ngra ishga kirishish lozim. Bunday yumushlar bajarilayotgan ishga ijodiy yondoshishni o'stirishga yordam beradi. Mashg'ulotga yakun yasash va bajarilgan ishni baholashda tarbiyachi foydalanilgan materiallar nomini so'raydi.

Bu tabiiy materiallar bilan ishlash mashg'ulotining taxminiy tuzilishidir.

Nazorat uchun savollar

1. Tabiiy va tashlandiq materiallarni to'plash?
2. Tabiiy va tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash?

6-mavzu. Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi.

REJA:

1.Kashtachilikda bezak buyumlarining turlari

2.Kashta tikish texnologiyasi

Milliy kashtachilik (kashtado'zlik) amaliy san'atning eng kadimiy turlaridan bo'lib, u xalkning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafakat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuxrat kozongan. O'zbek xalk ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Germaniya, Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Afg'oniston kabi xorijiy davlatlar muzeylarida doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmokda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muxit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV – XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467-yili Kamoliddin Behzod «Zafarnoma» ga ishlagan «Temur taxtda» miniatyurasida chodirga ishlagan kashtani ham aks ettirgan. XIX – asrning ikkinchi

yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazdi. Qo'l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalklar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi.

Kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga hos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. Chunonchi o'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi. Qozoq va qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq xayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari bo'lajak kelinlik seplari har xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa, shunchalik qimmatga baholanar edi. Qizlarga 7-9 yoshidan boshlab kashta tikishga o'rgatilardi. Ular uch-to'rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar. Yetishib chiqqan kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

Kashtachilikning maxsus turlaridan biri – applikatsiyadir. Applikatsiya kashtado'zlikning maxsus turi bo'lib, u o'ziga xos texnologiyaga ega. Asosiy matoga rangdor mato parchasini, charm va boshqalarni qadab, atrofi choklanadi, applikatsiyada ko'pincha chizma choklardan foydalaniladi.

KASHTACHILIKDA BEZAK BUYUMLARINING TURLARI

O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan. Shuning uchun har bir oila o'zi uchun kirpech, so'zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o'zi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko'p masalan, so'zana, kirpech, choyshab oyxalta, choy xalta, zardevor, palak, gul-ko'rpag dorpech, bug'joma, parda, belbog', takyanush (yostiqlik ustiga yopiladigan), Do'ppi, ko'ylak, dastro'mol, hamyon, joynamoz, nimcha, maxsi-kavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. Utmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo'ldi. Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

Do'ppi – O'zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do'ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o'rtasida rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga hosdir.

Mamlakatimizning barcha tumanlarida do'ppi tikiladi. Uning Iroqi, Chust do'ppi, gilam do'ppi, chakma tur, qizil gul, piltado'zi, zardo'ppi, to'ldirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor. Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi.

Arag'chin – sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmator, iroqi chok usullarida tikiladi.

Tus do'ppi – keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, zanjira, to'g'ri chok, chita, kungura, yetalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do'ppisining tepasi kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi sidirg'a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki guli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

Joynamoz – yerga solib ustida namoz o'qiydigan to'shama. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi. Undan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o'lchamda bo'ladi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatiladi.

Zardevor – uy jihozi, u sidirg'a shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo'yiladi. U zar ip yoki ipak gajimli bo'lib, eni 40-70sm uzunligi mo'ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.

Palak – devorlarga ilinib eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zanadan gullarining yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakni o'rtasida yirik oy tasviri kizil kirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oyli palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgani bizga ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashxur kashtado'zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o'z mahoratlarini namoyish etganlar. Agar oyni ichida sidirg'a rangda ifodalangan bo'lsa, uni, oypalak, agar naqshli bo'lsa gulpalak va xokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qo'l mexnati ko'p bo'lgani uchun so'zana deyila boshlandi. Lekin hozir palakni qo'lda tikishga katta ahamiyat berilmokda.

Kirpech – tokchaga taxlab qo'yilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorning bo'sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qo'lda yoki mashinada tikiladi. Kirpech qo'lda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saklaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka o'xshatib tikilgani kirpechpalak deb yuritiladi. Bu turi ham keng ishlatiladi.

So'zana – igna bilan tikilgan degan ma'noni beradi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo'yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o'ziga xos badiiy ko'rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalanadilar. Shuning uchun u palakdan farq qiladi. So'zana har bir xonadonda

bo'lgan, chunki har bir qiz turmushga chiqishidan oldin o'zi uchun so'zana tayyorlagan. So'zana kelinlarning sepi xisoblangan. Kambag'al oilada so'zanani malla, oq bo'zdan, badavlatroqlarida esa shoyidan, baxmaldan tikishgan. So'zana uchun kompozitsion joylashgan o'simliksimon naqshlardan foydalaniladi. So'zana o'rtasida ko'pincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islmiy naqshlar bilan bezatiladi. So'zana tikish juda qadimdan rivojlangan, lekin XIX-asrgacha bo'lgan so'zanalar saqlanmagan. Faqat XIX- asrga oid Samarkand, Buxoro, Nurota, Farg'ona, Uratapa, Shaxrisabz, Toshkent va boshqa joylardagi so'zana turlaridan namunalar bor. San'atning bu turi ayniqsa O'zbekiston hududida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda so'zana mashinada tikilib kelmokda.

Choyshab – forscha-tojikcha ro'yjotun chodiri degan ma'noni bildiradi. Choyshab asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun to'shak ustidan to'shaladi. To'shak ustidan yopiladigan choyshab ham kashtali oq surp, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaqtda choyshabdan so'zana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanib kelinmokda.

KASHTA TIKISH TEXNOLOGIYASI

Kashta turli rangdagi ipak, mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishdar. Kashta har xil kiyimlarga, ro'zg'or buyumlariga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, zig'ir, jun, sun'iy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, qimmatbaxo tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi. Kashtachilikda o'ziga xos ish qurollari mavjud bo'lib, ular o'ziga hos vazifani bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmokli va ilmoqsiz bigizlar, to'g'nag'ich, angishvona qaychi hamda chambaraklar ishlatiladi.

Chambarak asosan yog'ochdan yasaladi, u doira, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'ladi. Kichik kashtalarga doira chambarak ishlatiladi, chunki u qulaydir. Hamma kashtalarga ham chambarak ishlatilavermaydi. Ip va igna kashta tikiladigan matolar qalinligiga mos qilib tanlanadi. Kashtachilikda yog'och dastali ikki xil, ya'ni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Ayrim materiallarga, masalan, charm va kartonga qiynalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Naqshlar uchun o'tkir uchli 10-12sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay bo'lishi uchun qatim 50-60sm dan uzun bo'lmasligi lozim, kashta chambarakda tikilsa angishvona qo'llanilmaydi. Naqsh nusxasi turli materiallarga har xil yo'llar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko'chiriladigan qog'ozlar taxta, yorug'lik yordamida material ustidan buklab chiqiladi, keyin bu qog'ozlar yirtib olinadi. Kashtaga iplar rangini moslab tanlash kashtado'zdan katta maxorat hamda did talab qiladi. To'g'ri tanlangan ip kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'ladi.

Qo'lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqon hamda o'rim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi, matoga gul tasviri tarhini chizib, erkin kashta tikish. Arqon o'rim iplari kesishtirilib, polotno yoki bo'z shaklida to'qilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda mato iplarini sanab tikishga qulaydir. Sanama kashta turi O'zbekistonda keng tarqalgan. Erkin kashta mato

tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. O'zbek kashtachiligida yo'rma, ilma, iroqi, bosma, xomdo'zi, chamak, chipta xayol, baxya choklar keng tarqalgan. Badiiy kashtalarda turli joydan turli choklar ishlatiladi. Chunonchi Shahrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda ko'prok bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqandda yo'rma choki bilan tikiladi.

Chamak choki – kashta tikish choklaridan biri bo'lib, chapdan o'ngga ikki parallel chiziq bo'ylab tikiladi va o'tkazilgan igna undan sanchiladi. So'ng yuqoriga chapga tomon qiya qilib chiqariladi va pastki chiziqqa parallel ravishda to'g'ri qadaladi hamda pasti ham qiya qilib chiqariladi. Chamak choki qo'shimcha naqshlarni ramkaga olishda yoki do'ppi kizaklariga badiiy bezak berishda ishlatiladi. Qaychining kichik o'tkir uchlisi ishlatiladi. Chamak choki rus kashtado'zlari orasida « kozlik » deyiladi.

Bahya choki – kashta chetlarini mustaxkamlashga xizmat qilib, matoga xuddi buklagandek, lekin bir tekis chok hamda masofa xisobga olinib tikiladi. Shundan so'ng mato o'girilib yana tikib chiqiladi, natijada tekis ip chiziq hosil qilinadi. Bu chok juda qadimdan qo'lda, keyinchalik mashinada tikiladigan bo'lgan.

Ko'rpa choki turli yo'nalishda, ya'ni chapdan o'ngga, o'ngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga sidiq'ga tikib hosil qilinadi. Yonma-yon tikiladigan choklar bir tekis yoki gul shakliga qarab kichikdan kattalashib, kattadan-kichiklashib boradi. Bu chok (ikki tomonlama) sanama, piltado'zi nomlar bilan yuritiladi. Do'ppido'zlikda va kashtalarda juda keng foydalaniladi.

Chindi hayol – duruya choki, matoga igna qadalib bir me'yorda tikib chiqiladi, teskari o'girib yana tikib chiqiladi. Shu tarika matoning oldi va orqa tomonida bir xil gul hosil qilinadi. Bu chok ikki tomoni ham ko'zga tashlanadigan buyumlar, ya'ni sochiq, ro'mol va boshqalarni bezashda ishlatiladi.

Yo'rma choki yo'rmaki, ilmoqli bichiq yoki igna bilan matoning o'ng tomonida xalqalar zanjiri hosil qilib tikilib, bigizga o'tkazilgan ipak matoning sirtida chap qo'l bilan ushlab turiladi. Yo'rma choklari bilan yirik kashtalarning xoshiyalari, gul va barglari asosiy shoxga ulaydigan band va boshqalar qadimdan shunday usulda tikilgan. Yo'rma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtado'zlari ko'p foydalanadilar.

Nazorat uchun savollar

- 1.Kashtachilikda bezak buyumlarining turlari?
- 2.Kashta tikish texnologiyasi?

7-mavzu. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash.

REJA:

1. Yumshoq o'yinchoq tayyorlash uchun zaruriy ashyolar
2. Yumshoq o'yinchoq tayyorlash jarayoni

Hozirgi paytda yumshoq o'yinchoqlarga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Shunga ko'ra, biz maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilari, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ishlarini yengillashtirish maqsadida asosan qo'g'irchoq teatri to'garaklarida qo'llanib kelinayotgan o'yinchoqlar namunasini e'tiboringizga havola etishni lozim topdik. Bu o'yinchoqlar tarkibiga, bezaklariga sharoitdan kelib chiqib va mahoratingizga ko'ra ayrim o'zgarishlar kiritishingiz mumkin. O'yinchoqlarni berilgan katakchalar yordamida 2,3,4 va bir necha marta kattalashtirib andozani unga ko'ra tayyorlash qulaydir. Tikish usullarini esa yaxshi bilasiz. Har bir o'yinchoqning qismlari bir-birga tikilgach, ichki qismlarini tashqariga ag'darishni unutmang. Lekin uning ichiga esa gazlama bo'laklari, qiyqimlar, paxta tiqilishi mumkin. Ayrim o'yinchoqlarning old va orqa oyoqlari mahkam turishi uchun simdan karkas sifatida foydalaniladi. Ko'z, shoxchalarni yog'ochdan ham tayyorlash mumkin. Ba'zan ko'z sifatida chiroyli tugmachalardan ham foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur detallar kartondan yasaladigan bo'lsa, guash, akvarelda bo'yali, ustidan lak qoplanadi.

Kerakli asboblari:

1. Ignalarning turli katta kichiklari.
2. G'altakli turli rangdagi iplar.
3. Rangli mulina iplari.
4. Turli rangdagi ipakli iplar.
5. Qaychi 6 dona.
6. Bigiz.
7. Ombir 1 dona.
8. Dazmol.
9. Yog'ochli, temirli tayyoqcha (paxta to'ldirish uchun)
10. Tikuv mashinasi.
11. Oddiy qalamlar.
12. Loy yasashda ishlatiladigan tayyoqcha.
13. Rasm chizish uchun mo'yqalamlar.
14. Doiraviy ombur 2 dona.
15. Har xil kattalikdagi igna.
16. Har xil rangdagi №10, №40, №50, №60 turli qalinlikdagi iplar.
17. Har xil rangdagi ipak ip.
18. Dag'al iplar.
19. Yumshoq jag'li ombir.
20. O'tkir jag'li ombir.
21. Angishvona.
22. Dumaloq yog'och (paxta tikish uchun)
23. Qalam.

Kerakli ashyolar:

Yumshoq o'yinchoq uchun iloji boricha yangi mato yoki avvaldan yuvib, dazmollangan satin, barxat, shtapil, paxmoq, chit, junli matolar.

O'yinchoq hayvonlarni tayyorlash uchun, sun'iy va tabiiy jun matolaridan foydalaniladi. Tana, yuz ko'rinishlarini tasvirlovchi qo'g'irchoq o'yinchoqlari uchun shifon, shoyi matolar. Yuz uchun och pushti, och jigarrangi matodan olinadi.

Kiyimlari uchun: rangli matolar. Soch uchun: sun'iy iplar, viskoza, qismlarni biriktirishda 1-2 mm yumshoq simlardan o'yinchoqlarni jixozlashda, har xil tugmacha, biser, tisma, lentachalar, shnurlar hamda eskiz tayyorlash uchun plastilin zarur. O'yinchoq ichini paxta, sintefon, trikotaj chiqindilari, averlo tikishda chiqqan qirindilar, yog'ochdan chiqqan qipiq bilan to'ldirish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tayyorlashga o'rgatish ishini nimadan boshlash kerak?

Dastlab, bolalarni igna ushlashdga, igna to'g'nog'ichdan o'rinli foydalanishga, so'ng eng oddiy chok turlarini tikishga o'rgatish zarur. Chok turlarini o'rgatish uchun amaliy bir necha ish tavsiya etiladi (ro'molcha tikish, xaltacha, kitob uchun xatcho'p) bu esa bolalarni chok turlarni tikish malakasini egallashlariga sharoit yaratadi. Bolalarda igna bilan ishlash malakasi hosil bo'lgandan so'ng, oddiy model tayyorlashga o'tiladi. Kichik bolalar qo'lda tikadilar, kattaroq bolalar tikuv mashinada tikishlari mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tayyorlash jarayoni quyidagi ishlardan iborat: mato tanlash, g'ijim bo'lak matoni dazmollash, matoga andozani chizish, qismlarni bichish, tikish, ichini to'ldirish, ustini jihozlash.

Andoza kartondan tayyorlanadi. Bichishda mato ikkiga buklanadi, uning chap tomoniga andoza qo'yib, uchi yaxshi ochilgan qalam bilan tayyorlanayotgan bo'lsa, andoza har bir bo'lak mato ustiga ipini qiyalab yo'nalgan tomoniga qo'yiladi. To'q mato bo'lsa, andoza oq yoki sariq rangli qalam bilan, och rangli mato bo'lsa qora rangli uchi yaxshi ochilgan qalamdan foydalaniladi.

Chizib olingan mato har tomonidan 0,5 sm chok uchun qoldirib, qirqiladi, so'ng qo'lda yoki mashinada tikiladi. Burchaklari o'ng tomonidan chiqariladi. Tayyor tikilgan shakl metal tayoqcha yordamida o'tmas tomoni bilan o'ngiga ag'dariladi.

Agar o'yinchoq tabiiy jundan tayyorlanayotgan bo'lsa, chok xaqi qoldiriladi, chetlari qalin ipda tikiladi. O'yinchoq titiluvchan matodan bo'lsa chok xaqi qodirilmaydi, o'yinchoq bichib bo'lgandan so'ng, ustki qismdan halqa choki bilan tikiladi.

Hayvon va qushlarni tikish quyidagi qoida bo'yicha: avval tana va qorin qismlar bir biriga tikiladi. Shaklning ikki yarmi tayyor bo'lgandan so'ng ularni birga tikiladi. Shakl o'ngiga ag'darilib, ochiq qoldirilgan joydan ichi to'ldiriladi, qismlar bir-biriga ko'rinmas chok bilan birlashtirib tikiladi. O'yinchoqning ichi paxta yoki mayda mato qiyqimlari bilan to'ldiriladi oyoq qismlarini tayoqcha yordamida to'ldiriladi. Bolalar texnik jarayon bilan tanishtirilgandan so'ng o'yinchoq tayyorlashga o'tiladi.

O'yinchoq tayyorlanishning murakkablik bosqichiga qarab ikki guruhga ajratiladi:

1-guruh (kichik bolalar) yengil to'ldiriladigan o'yinchoqlar (tovuq, matreshka qo'g'irchoq'i, pingvin, o'rdakcha, kuchukcha, filcha, quyoncha, ayiqcha, xo'tikcha, jirafa, pastki qismi tikilgan qo'g'irchoq).

2- guruh qo'g'irchoq teatri uchun qo'g'irchoq personajlari (ayiqcha, maymuncha, qo'g'irchoq, mushuk, sim sinch o'rnatilgan o'yinchoq).

Eslatma: berilgan andoza qanday kattalikda bo'lsa shundayligicha tikilishi kerak. Kattalashtirishga berilgan, kattalashtirishi kerak bo'lgan o'yinchoq katak ichida chiziladi.

O'yinchoqlar tayyorlashni kattalar ham, bolalar ham yaxshi ko'radilar. Bular bolalar uchun bir ermak o'yin bo'lsa, kattalar uchun bolalar qalbiga yo'l topishdir. O'yinchoqlar yasash bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. saviyasini kengaytiradi, ijodiyotga qiziqishni tarbiyalaydi. O'yinchoqlarni bolalar bilan birga yasash va mehnat qilish bo'lib qolmasdan, balki ijod qilish, fikrlash hamdir. Ular o'zlari yasagan o'yinchoqlarida o'zlarini ajoyib-g'aroyib istaklarini, muhabbatlarini, mehnatlarini sarflaydilar. Shuning uchun ularning mehnatlarini qadrlash va mehnat qilishga qiziqtirish lozim. Bu esa ularda maqsadga intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, o'zaro yordam berish, mehnatsevarlik, e'tiborlilik, batartiblikni tarbiyalaydi.

Qo'g'irchoq teatri, mazmunli-rolli o'yinlar, ertaklar, hikoyalar uchun qo'g'irchoqlarni tayyorlash ancha mehnatni talab qiladi. Shuning uchun kattalar bolalarga andozalarni tayyorlash tikish yo'llarini tushuntirib berish zarur. O'yinchoqlarni tayyorlashda har xil matolar qiyqimlaridan, eski kiyimlardan foydalanish mumkin (chit, pahmoq, trikotaj, junli matolar, movut, eski telpaklar).

O'yinchoqlarni tikishda chok, yo'rma chok, qoviq chok, bosma chok, sirtmoqsimon choklardan foydalaniladi. O'yinchoq tayyorlashda, eng avvalo, kartondan andoza tayyorlanadi. Berilgan chizmalarni kattalashtirish lozim bo'lsa, kerakli o'lchamda katakchalar chizib olib, ularni va chizmadagi katakchalar bir xil sonlar bilan belgilanadi. So'ng har bir katakning ichidagi chizma chizib chiqiladi. Shunda chizma kerakli o'lchamda kattalashtiriladi. Andoza gazmolga qo'yib bichiladi. Bichishda gazmoldan 8 mm tikish uchun qoldirib so'ng qirgiladi. Tikish tayyorlangan o'yinchoqni ichi har xil paxta, parolon va trikotaj qiyqimlari bilan to'ldirib, tayyorlanadi. Bosh qismini bezatish uchun tugmacha, munchoq, yaltiroq charm yoki kleyonka ishlatiladi.

Sichqoncha o'yinchog'ini tikish. Sichqonchani och xavo rang yoki kul rangdagi sidirg'a matodan tikish mumkin. Mato ustiga tana andozasini qo'yib ikki marotaba chizib oling, avval bir tomoni keyingisini qorin andozasini xam xuddi shunday chizib oling. Hamma anzozalarni chizib olganingizdan keyin matodan qirqib olib, tananing bir tomoniga qorining bir tomonini xalqa choki bilan tikasiz. Tikishda ko'rsatilgan xarflarga e'tibor bering. Avval 4 ta quloq detalini ikkitasini aloxida

tikasiz. Andozaning bosh qismiga **v** va **g** nuqta, bu yerga peshonasi tikiladi. Bosh qismining ikki tomoniga quloqlari tikiladi. Tayyor bo'lgandan so'ng ichiga paxta solib ko'zini ko'zmunchoq donasidan tikamiz.

Mushukcha o'yinchog'ini tikish. Matolar: mo'ynali gazlamalar, trikotaj paxta. Mushuk yasash uchun rasmda ko'rsatilgan chizma asosida andoza tayyorlanib, gazmoldan quyidagi detallar qiladi. Tana-2ta, tana tagi-2ta, (bittasi kartondan, ikkinchisi gazmoldan), dum-1ta, bosh-2ta, tumshug'i uchun yopiq-1ta, quloq-4ta, ko'z-2 tadan tayyorlanadi.

Qirqilgan detallar juftlanib ko'klanadi, so'ng o'ngiga tekislab shaklga keltiriladi. Mushukning tanasi taglik bilan bekitiladi. Tanasiga chizmada ko'rsatilgan joyga yashirin chok bilan boshi va dumi tikiladi. Oq paxta yoki trikotajdan tumshug'i uchun yopqich bichilib, ramkasi zanjirsimon chok bilan tikiladi. Tikib bo'lgandan so'ng shaklga ip bilan bir necha marta o'raladi va o'rtasidan chiziqlar bilan ko'rsatib qo'yilgan bosh qismidagi joyga tikiladi. Boshning uchiga burun pushti munchoqdan yoki tugmachadan tikiladi. Boshning pastki qismiga yon tomonlariga qora charmdan ko'z qorachig'i, zangori movutdan ko'z osti qirqib tikiladi. Quloqlari ikki rangdan, tashqarisi gavdasi rangidan, ichkarisi pushti paxmoq yoki trikotajdan qirqilib birlashtiriladi. So'ng o'ngiga aylantirilib, ozgina cho'ziladi va bosh qismidan ko'rsatilgan joyga tikiladi.

«Petrushka» qo'g'irchog'ini tikish mashg'uloti

Mashg'ulot vazifalari: bolalarga «Petrushka» qo'g'irchog'ini yasash usullari haqida tushuncha berish. Igna, ipdan, to'g'ri foydalanish, ip uchini tugish malakalarini o'stirish. Yasaydigan o'yinchoqqa mos mato va unga mos rangda ip tanlashga o'rgatish, matoni tejab ishlatish va qaychidan ehtiyotkorlik bilan foydalanishga odatlantirish. Ishni sifatli qilib oxiriga yetkazish malakalarini mustahkamlash.

Mashg'ulotni jihozlash: har xil rangdagi drap matolari, paxta, ip va igna.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: bolalar, bugun bizga kim mehmon bo'lib keldi? Qani qaranglar-chi uni taniysizlarmi? Ha, to'g'ri bu qo'g'irchoq «Petrushka». Qaranglar bu qo'g'irchok petrushkamiz juda quvnoq, sho'x raqsga tushishni biladi. Mana qaranglar (petrushkani raqsga tushiradi). Endi bolajonlar sizlar bilan birgalikda quvnoq petrushka o'yinchog'ini matodan tikamiz. Men sizlarga «Petrushka» qo'g'irchog'ini tikish usullarini tushuntirib ko'rsatib beraman. Birinchi bo'lib Petrushkamizning boshini tikib olamiz. Boshini dum-dumaloq holda tikib, buyin kismi ochiq holda tikilmay qoldiriladi, So'ngra, tikilgan bosh qismining ichki kismi o'ngiga ag'dariladi. Bosh qismiga paxtadan bir tekisda tig'iz qilib solinadi, boshning o'rtasidan bitta barmoq kengligida joy qoldiriladi. Mana Petrushkaning bosh qismi tayyor bo'ldi. Uni bir tomonga qo'yamiz. Navbatdagi ish Petrushkaning tana qismini tayyorlash bo'lib,

buning uchun bizga qattiq drap mato kerak bo'лади. Undan konus shakli qirqib olinadi. So'ngra, qirqib olingan konusning bir tomoni tikiladi. Konus shaklida tayyorlangan Petrushka tanasi o'ngiga ag'dariladi va uning uchki tomoni bosh qismining ochiq qoldirilgan qismiga o'rnatiladi. Qaranglar, Petrushkamizning bosh qismi va tanasi tayyor bo'ldi. Endi Petrushkaning tana qismini turli rangdagi matolar bilan tikib mahkamlaymiz. Endi Petrushkamizning qo'llarini yasaymiz. Buning uchun andoza yordamida Petrushkaning qo'llari bichib olinadi va ikki bo'lak qilib bir-biriga tikib chiqiladi. O'ng va chap qo'llar tayyor bo'lganidan so'ng, bosh va o'rta barmoqlarga kiyib ko'riladi. So'ng Petrushkaning konussimon tanasidan bosh va o'rta barmoqlar balandligida teshiklar ochilib, qo'l tikib qo'yiladi. Endi avval tayyorlangan bosh qismni olib, qora drap matodan Petrushkaning ko'z-qosh, sochlari qirqib olinadi. Ozgina qizil matodan og'zini qirqib olamiz. So'ngra ko'z, qosh, sochlar bosh qismiga yopishtiriladi. Oxirgi qiladigan ishimiz Petrushkaning shlyapasini /soyabonini/ yasashdir. Buning uchun qora drap matodan konus shaklini qirqamiz. Shuningdek, yana doira shaklida ham qirqib, uning o'rtasini belgilab olamiz. Konus shaklini tikib ag'daramiz. Ag'darilgan konusni doiraning qirqilgan qismiga tikamiz. Doira va konusning diametri bir xil kattalikda bo'lishi kerak. Tayyor bo'lgan soyabonni Petrushkaning bosh qismiga to'rt tomonidan tikib o'rnatamiz.

So'ng, bolalarning o'zlari mustaqil ishlashga taklif etiladi. Qiynalgan bolalarga yasash usullari alohida tushuntirilib, ko'rsatib beriladi.

Mashg'ulotning yakuni:

Bolalar ishi rag'batlantiriladi. Tayerlangan "Petrushka" qo'g'irchog'i ishtirokida ba'zi bir sahnalashtirilgan ko'rinishlar namoyish etiladi. Bolalar bog'chasida mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha jihozlar yetarli bo'lishi kerak. Zarur asbob - anjomlar, asbob - uskunalar gigienik tomondan bolalar hayoti hamda sog'ligini muhofaza qilish qoidalariga qat'iy muvofiq kelishi lozim. Shuningdek, bolalar tomonidan foydalanilgan materiallar egiluvchan va ishlov berish oson bo'lishi, asbob - anjomlar esa ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tanlanishi kerak. Bundan tashqari, bolalar asbob-anjomlar saqlanadigan joyni yaxshi bilishlari hamda mashg'ulot tugagach ularning o'rnini topib tozalab, ozodagarchilik talablariga rioya qilishlari hamisha diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Yumshoq o'yinchoq andozasini kattalashtirish usuli. Yumshoq o'yinchoq andozasini kattalashtirish uchun, eng avvalo, kichik andozani katakli qog'ozga tushurib olamiz.(0,5sm) Andozani kattalashtirishda o'zimiz xohlagan kattalikka keltirish uchun uning taxminiy ko'rinishini tasavvur qilish lozim. Shundan so'ng katakli qog'ozni olib, uni 1 sm li (2 sm li) qilib chizib chiqamiz. Bu andozani qanchalik kattalashtirishingizga bog'liq. Chizilgan katakli qog'ozni olib kichik andozadan har bir qismni kattalashtiramiz. Har bir katakni bittadan chizish lozim. Shunda andozani kattalashgan holda olamiz. Agar millimetrovka bo'lsa yanayam yaxshi bo'лади.

Nazorat uchun savollar

1. Yumshoq o'yinchoq tayyorlash uchun zaruriy ashyolar
2. Yumshoq o'yinchoq tayyorlash jarayoni?

8-mavzu. O'yinchoqlar to'qish texnologiyasi.

REJA:

1. To'qish, halqalarni hosil qilish usullari
2. To'qish texnologiyasi

To'qish, halqalarni hosil qilish usullari. O'zbek xalqi qadimdan qo'l hunarmandchiligi sirlarini chuqur egallab kelgan. Jumladan, o'zbek xotin-qizlari mohirlik bilan kashta, jiyak, do'ppi, to'n, so'zana kabilarni tikish bilan shug'ullanganlar. Ular atlas va gilamlar to'qishgan. Bor xomashyolardan foydalanganlar. Hozirgi kunga kelib ayollarimiz orasida qo'lda kiyim - qo'lqopchalar to'qish keng rivojlanib bormoqda. Qo'lda to'qilgan kiyim-kechaklar betakror va bejirimdir. To'qish amaliy san'atning bir turi bo'lib, nihoyatda zavqli va foydalidir. To'qilgan kiyim yaroqsiz bo'lib yotmaydi yoki tashlab yuborilmaydi. Har bir to'qish hunaridan xabari bor xotin-qiz kerakli buyumni osonlikcha to'qib oladi va umuman to'qigan sari o'z-o'ziga ishonch va yaratuvchanlik qobiliyati ortib boradi.

To'qish qurollari bu- spitsa va ilgakdir. Spitsa—asosiy to'qish quroli bo'lib, uning quyidagi turlari bor.

1. Aylana troschali.
2. Aylana naychali.
3. To'g'ri ikki uchi uchli.
4. To'g'ri bir uchi.

Spitsalar — nikellangan, po'lat, temir, alyumin, plastmassa va yog'ochdan yasalgan bo'ladi. Eng foydalanishga qulay spitsa po'latdan yasalgan, ikki uchi uchli va bir uchi uchli spitsadir. Chunki u mustaxkam bo'lib, yog'och va plastmassa spitsalar kabi sinib ketmaydi. Har bir spitsaning raqami bor. Spitsaning raqami uning diametrini bildiradi.

1. Raqamli spitsani diametri 1 mm.
4. Raqamli spitsani diametri 4 mm.

Har bir to'qishni o'rganuvchi talabaga har xil raqamli spitsalar bo'lishi kerak. Chunki har bir spitsa o'z o'rnida ishlatiladi. Bu buyumni sifatli bo'lishiga olib keladi.

Ilgak: Kalta [12-15sm] va [30-40sm] hamda ingichka va yo'g'on [1-6 mm] Ilgaklar bor. Har xil iplarni to'qishda har bir ipning o'ziga mos ilgak tanlanadi. Ilgak ipdan ikki baravar yug'on bo'lishi kerak. Ilgak po'lat, alyumin, plastmassa, mis va

temirdan yasalgan bo'ladi. Ilgakdan spitsada to'qilgan, matoni birlashtirishda, mato chetini aylantirib to'qib chiqiladi.

TO'QISH TEXNOLOGIYASI

Buyumni qo'lda to'qish uchun spitsa yoki Ilgak kerak bo'ladi. Buyumni junli, jun aralash ip, ipak, ip paxta, ipi, quyon va echki yunglaridan yigirilgan ip, ham ip va hokazolardan to'qish mumkin. To'qiladigan buyumga shakl berish uchun andozaga muvofiq yoki xisobga yarasha shu halqalar soni ko'paytiriladi.

Ilgak yordamida to'qish. Ilgak yordamida to'qish qo'l mehnati turlaridan biridir. To'qishning asosiy turlari – shnurcha, ustamali zanjir, ustamasiz zanjir to'qish bilan tanishib olgach, namunaga yoki rasmga qarab juda xilma-xil buyumlar to'qish mumkin. Ilgak bilan jun, oddiy ip va ipakdan har xil buyumlar to'qish mumkin. Asosiy asbob – metallardan, yog'ochdan, plastmassadan, suyakdan yasalgan ilgakdir. Ilgaklar: 2 dan to 6 gacha nomerli bo'ladi. Ilgakning nomeri uning yo'g'onligiga va ish bajaradigan (to'qiydigan) qismining chuqurligiga bog'liq. Ilgak ipning yo'g'on-ingichkaligiga va sortiga qarab tanlanadi. Ip ilgakning ish bajaradigan qismining chuqurligi (ilgagi)dan bir yarim-ikki barobar yo'g'on bo'lishi kerak.

To'qish paytida ilgakni o'ng qo'lning bosh va ko'rsatkich barmog'i bilan ushlash va uni o'rta barmoq bilan ishga solib turish kerak. Ilgakda to'qilgan buyumlar halqaning shakli va o'lchamiga qarab har xil bo'ladi. Buyumning tekis to'qilishi uchun ipni bir tekis tortib turish, halqani bog'lash, ularning soni va shakliga rioya qilib turish kerak. Agar halqaning o'lchami va shakliga rioya qilinmasa, halqalar sanab to'qilmasa, buyumning ko'rinishi va shakli buziladi. To'r to'qishning asosiy turlari ustida to'xtalib o'tamiz. Bular bilan talabalar tanishishi lozim.

Birinchi halqa – to'qish bu halqadan boshlanadi. Ilgak o'ng qo'lda bo'ladi. Ip uchini halqa qilib buklab, chap qo'lning bosh va ko'rsatkich barmog'i bilan ushlab turish kerak. Halqaga ilgakning uchini suqib va kalavadagi ipni ilib, halqa orasidan tortib chiqariladi. So'ngra ip yana Ilgak bilan ilib olinadi va hosil bo'lgan yangi halqa orasidan tortib chiqariladi. Ipning uchi tortiladi va 1sm qoldirib uchi qirqib tashlanadi.

Havo halqasi – kalavadan ilgak uchi bilan ipni ilib halqa hosil qilishdir, bunda kruchokning o'zida birinchi halqani hosil qilib olamiz. Havo halqasining bir nechtasi zanjir yoki shnur hosil qiladi. Shnur har qandan to'rning asosi hisoblanadi. Havo halqasining soni buyum o'lchamiga yoki rasmdagi halqa soniga bog'liq bo'ladi. Havo halqasi to'qishda ularning o'lchamlari bir xil bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Ustamasiz zanjir to'qish. Kerakli uzunlikdagi zanjir hosil bo'lgach, burilish halqasi to'qiladi. Zanjirni o'ng tomoni bilan chap qo'lning ko'rsatkich barmog'i bo'ylab qo'yiladi va chap qo'lning bosh barmog'i bilan ushlab turib, ilgak zanjirning o'ng tomonidan uchinchi halqaga suqiladi (Ilgakning o'zida turgan halqa, ya'ni burilish halqasi ham qo'shib hisoblanadi). Kalavadagi ip ilgakda ilib olinadi va havo

halqasi orqali tortib chiqariladi. Ilgakda ikkita halqa hosil bo‘ladi. Yana ilgak bilan kalavadagi ipni olib, bu halqalar bog‘lanadi. Ilgakda yana bitta halqa qoladi. Ikkinchi qatorning zanjirini to‘qish uchun ilgakni navbatdagi halqaning o‘rtasiga suqiladi va kalavadan yana ip ilib olib, yana havo halqasidan tortib olib chiqariladi. Ilgakda yana bog‘lanadigan ikkita halqa hosil bo‘ladi. Keyingi zanjirlar ham shu tariqa to‘qiladi. Ustamasiz zanjir bilan to‘qilgan buyumlar zich va tarang bo‘ladi.

Ustamali zanjir. Ustamali zanjir bilan to‘qilganda buyum nafis va jimjimador chiqadi. Bir ustamali zanjir quyidagicha to‘qiladi. Birinchi (etakchi) halqali ilgak uchining ustiga o‘ng tomondan ip tashlanadi – bu ip ustama ipdir. Ustama ipli ilgak halqaga sanchiladi (chetidan uchinchi halqa); agar ustunchalar zanjir bilan to‘qilsa, kalavadagi ip ilib olinadi va uni halqa shaklida ilgakka tortiladi. Bu vaqtda ilgakda ikkita halqa hosil bo‘ladi, ularning o‘rtasida esa ustama ip bo‘ladi. Ilgak bilan kalavadan ip ilib olinadi va qo‘shni halqa bilan ustama ipdan tortib o‘tkaziladi, ilgakda yana ikkita halqa bo‘ladi. So‘ngra ip ilib olinadi va bu ikkala halqadan tortib chiqariladi. Ilgakda yana bitta yetakchi halqa hosil bo‘ladi. Agar ustunchalar to‘qishni zanjirdan boshlamay, ustamali yoki ustamasiz zanjirdan iborat polotnodan boshlansa, u holda birinchi ustuni uchta havo halqasi bilan hosil qilinadi.

Uchinchi yetakchi halqadan ustamali ustuncha to‘qish boshlanadi. Ilgak bilan ishlagan vaqtda ba’zi bir maxsus terminlarni bilib olish kerak. Burilish halqasi – to‘qish vaqtda to‘rning bir qatoridan ikkinchi qatoriga o‘tishda ilgakda turiladigan halqadir. Ilgak bilan to‘qilgan qator yoki zanjirning ustki qismi bir-biriga ulangan halqalarga o‘xshaydi. To‘qilayotgan to‘rning to‘qilish tomonidan tashqarida, ustidan turuvchi halqa qismi, tashqi yarim halqa deyiladi. To‘quvchiga nisbatan narsaning ichki tomonida turuvchi halqa qismi ichki yarim halqa deyiladi. Ichki va tashqi yarim halqalar asosiy halqani tashkil qiladi. Amaliy qo‘llanmalarda ishlarning tavsifi berilganda ilgakni qaysi halqaga – tashqi, ichki yoki asosiy halqaga suqish kerakligi ko‘rsatiladi.

Ustuncha (ustamali yoki ustamasiz ustuncha) to‘qib bo‘lgandan keyin ilgakda qolgan halqa yetakchi halqa deyiladi. U keyingi ustuncha yoki zanjirning boshlanishi hisoblanadi.

Ayrim buyumlarni to‘qigan vaqtda ularni kengaytirish yoki zichlashtirish, ya’ni halqa sonini kamaytirish yoki ko‘paytirish kerak bo‘ladi. Halqa qo‘shish uchun asosiy halqaga ustamali yoki ustamasiz bitta halqa emas, ikkita, uchta halqa to‘qish kerak. Buyumni qo‘shimcha havo halqalari bilan kengaytirish mumkin, bu halqalar ustamali yoki ustamasiz ustunchalar orasiga to‘qiladi.

Buyumlarni zichlashtirish uchun halqalar sonini qisqartirish lozim: ustamali yoki ustamasiz ustunchalar asosiy halqaga to‘qilmay, oralatib to‘qiladi. Ilgak bilan to‘qishni o‘rganish uchun havo halqasi bir xil bo‘lgan zanjir to‘qishni mashq qilish kerak. To‘qilgan zanjirni bog‘ich o‘rnida ishlatish mumkin (narsalar osish, papkalarga bog‘ich qilish va boshqalar). Agar uzunligi 25sm li bog‘ich kerak bo‘lsa, ip uch barobar ortiq olinadi. Suyakdan ishlangan ilgak bilan qalin ip yoki sutajdan zanjir to‘qishni o‘rganish oson bo‘ladi.

Bolalarning zanjirdan yasalgan sumkasi. Agar sutajdan 2,5m uzunlikdagi ikkita zanjir to‘qilsa, u bolalar sumkachasi uchun xomashyo bo‘ladi. Har bir zanjirdan sumkachaning yarim pallasi hosil bo‘ladi. 15X15sm qalin qog‘oz ustiga zanjirning o‘ngini ichkariga qilib spiralga o‘xshatib o‘raladi va xomashyo tekis bo‘lishi uchun qog‘ozga tikib qo‘yiladi. Zanjirning chetlari yo‘rmab tikiladi. Spiral bo‘ylab chok tikiladi. Tikilatgan zanjirdan 25sm qolgach, uni doiraning chetiga mahkamlab tikiladi, ikkinchi uchini esa aylana uzunligining to‘rttdan bir qismiga teng keladigan masofada xomashyo chetiga tikiladi. Bu sumkachaning dastasi bo‘ladi. Sumkaning ikkinchi pallasi ham huddi shunday to‘qiladi. Ikkala doira tayyor bo‘lgach, reja va qog‘oz olib tashlanadi, so‘ngra ularning o‘ng tomonini bir-biriga qaratib birlashtiriladi va chetlari tikiladi. Faqat dastasi o‘rnatilgan tomoninig cheti tikilmaydi. Shnur yoki sumkacha uchun zanjir to‘qish to‘qishga doir boshqa ishlarni bajarish uchun juda yaxshi tayyorgarlik bo‘ladi.

Nonushta solib qo‘yiladigan sumkacha. Nonushta solib qo‘yiladigan sumkacha ham ustamali ustuncha usulida to‘qiladi. Buyumning jimjimador bo‘lishi uchun har bir ustuncha orasiga ikkita havo halqasi to‘qiladi. Sumkachani iris yoki qog‘oz ipdan to‘qish mumkin. sutajdan to‘qilgan sumkacha ancha pishiq, lekin qo‘polroq bo‘ladi. Nonushta uchun sumkacha to‘qish 12-15sm li zanjirdan boshlanadi. Bu zanjir atrofiga oralariga ikkitadan havo halqasi to‘qilgan ustamali ustunchalar to‘qiladi. Burilish joyida asosning bitta halqasiga oralarida ikkitadan havo halqasi bo‘lgan ustamali 4 ta ustuncha to‘qiladi. Ikkinchi qatorlarda keyingi qatorlarda har bir qatorning ustunchalari o‘zidan oldingi qatorning ustunchasiga kiritib to‘qiladi. Sumkachaning oxirgi qatori tutash ustunchalar bilan to‘qiladi. Dastasini bir qatorda 3-4 ustamali ustunchalar bilan to‘qiladi.

Shippak. Bino ichida jismoniy tarbiya mashqlari vaqtida kiyish uchun qulaygina shippak to‘qib olish mumkin. uni istalgan rangdagi har qanday oddiy ipdan to‘qish mumkin. Ish boshlashdan oldin oyoqni o‘lchab olish kerak. Oyoqni bir varaq qog‘ozga qo‘yib chetidan qalam yuritib chiqiladi. Qalam izidan qog‘ozni qirqib oyoqning andazasini olamiz. Shippak to‘qish vaqtida tumshug‘ining enini va butun bo‘yini ana shu andazaga qarab mo‘ljallaymiz. To‘qishni 6 ta havo halqasidan to‘qilgan zanjirdan boshlaymiz. Zanjirning uchlarini biriktirib, berk halqa hosil qilamiz. Bu halqa atrofida ustamasiz 10 ta ustuncha to‘qiymiz, bunda Ilgakni halqaning o‘rtasiga kiritib to‘qiymiz, keyin bu yo‘g‘on halqa atrofini to‘qiymiz va har bir qatorga 3-4 tadan ustun qo‘shib boramiz. Shippakni juda keng yoki tor qilib qo‘ymaslik uchun bajarayotgan ishimizni vaqti-vaqti bilan andazaga solishtirib qo‘ramiz. Shippak tumshug‘ining eni andaza eniga yetmaguncha to‘qishni davom ettira berish kerak. So‘ngra halqa qo‘shmasdan 7-8 qator (yoki andazaga muvofiq ko‘proq) to‘qiymiz. Shippakning tumshug‘i tashqi tomondan xaltachaga o‘xshaydi. Shippakning tumshug‘ini to‘qib bo‘lgach, yon tomonlari va tagini to‘qishga kirishamiz. Agar biz hozirga qalar doira bo‘ylab. Biridan ikkinchisiga o‘tib to‘qiymiz. Bu quyidagicha bajariladi: shippakning tumshug‘i xaltachaning qismini to‘qib bo‘lib halqani aylantiramiz va teskari tomonga ustun to‘qiymiz. Andazaga qarab shippakning yon tomonlari va tagini to‘qiymiz. To‘qilgan shippakning hamma

o'Ichamlari andazadagiga mos kelsa, uni ikkiga buklaymizda, tovonini biriktiramiz. Shunday qilib, shippak tayyor bo'ladi. Ipni uzmasdan turib, ustamasiz ustuncha usuli bilan shippakning oyoq kiradigan og'zi to'qiladi. Shippakning ikkinchi poyi ham huddi shunday to'qiladi.

Bolalar boshmoqchasi. Jun yoki oddiy ipdan hali yura olmaydigan bolalar uchun boshmoqcha to'qish mumkin. Boshmoqchanning uzunligini bilish uchun o'lchov olish: qog'oz ustiga oyoqning tagini tushurish kerak. Ish boshmoqcha tumshug'ini to'qishdan boshlanadi. Olita halqadan iborat zanjir to'qiyimiz. Zanjirni mahkamlashimiz kerak. Buning uchun yetakchi halqali ilgakni eng chetidan ikkinchi halqaga qadaymiz va ustamasiz ustuncha to'qiyimiz. Zanjir bo'ylab yana to'rtta ustuncha to'qib, oxiriga yetkazamiz. 2-3 ta havo halqasi to'qib, zanjir to'qishni qarama-qarshi tomondan davom ettiramiz. So'ngra ikkinchi qatorga o'tamiz va 2-3 ta havo halqasi bor joygacha to'qiyimiz. Avvalgi qatorga qaraganda, bu qatorda ham 2-3 ta halqa qo'shamiz. Boshmoqcha tumshug'idan boshlab uning yuzi chizig'ini hosil qilish uchun shunday qilinadi. Halqa qo'shish boshmoqchanning yuza tomonidan 2-3 havo halqasi to'qish hisobiga bo'ladi. Bu halqalarga har bir qator bilan ikkitadan qo'shimcha ustamasiz ustuncha to'qiyimiz. Yuza qarshisidagi qismi oyoq kafti hisoblanadi. Bunda boshmoqcha paypoq singari, ya'ni boshmoqchanning tumshug'ini to'qigandagi doira bo'yicha to'qiladi. So'ngra ipni uzmasdan, boshmoqchanning orqasini to'qishga kirishamiz. Boshmoqchanning qo'ngi chuqurroq bo'lishi uchun, avval 10 ta havo halqasi to'qib olish kerak, so'ngra ilgakni teskari tomonga aylantirib, uchinchi halqadan boshlab ustamali ustuncha yordamida zanjir to'qiyimiz. So'ngra boshmoqchanning asosiy qismini ustuncha bilan to'qishni davom ettiramiz. Xaltachaning qismini to'qib bo'lib, yana 10 ta havo halqasi to'qiyimiz, u boshmoqchanning ikkinchi tomonidan orqasini to'qish uchun kerak bo'ladi. Ilgakni teskari tomonga aylantirib, ustuncha usulida zanjir to'qiyimiz va boshmoqchanning bu qismini butun uzunligi bo'yicha to'qiyimiz.

Shu usulda 12-14 qator to'qiyimiz, qator soni bolaning oyoq andazasining uzunligiga bog'liq. Tovuinning chetlarini tikib yoki ilgakda to'qib biriktiramiz. Boshmoqchani bezash uchun uning ustki qismini ustamali yoki ustamasiz ustuncha bilan to'qiyimiz. Boshmoqchanning oyoqdan tushib qolmasligi uchun shnur to'qib to'piqdan yuqoriga o'tkazamiz.

Do'ppi. Do'ppini naqshli yoki naqshsiz, ustamali yoki ustamasiz ustuncha usulida to'qish mumkin. Har qanday usulda to'qishni ham 5-6 ta havo halqasini halqa qilib to'qishdan boshlash kerak. Do'ppini ustamali ustuncha usulida to'qish uchun halqa ustiga 8-10 ustuncha to'qiladi. Bu birinchi qator bo'ladi. Qolgan qatorlar doira bo'ylab to'qiladi. Har bir qatorga 5-6 tadan halqa qo'shib boriladi, bunda doiraning cheti ilon izi bo'lib qolmasligiga diqqat qilib borish kerak. Diametri 10-12sm bo'lgan doira to'qigach, halqalar soni (2-3taga) kamaytiriladi. Natijada doiraning cheti torayib, buyum taqsimcha shakliga keladi. Do'ppi hosil bo'lguncha to'qish davom ettiriladi. Do'ppining chetini kungurador qilib bezash mumkin. kungura ustamali ustuncha usulida to'qiladi. Har bir kungura 6-7 ta ustunchadan iborat.

Do'ppini kungura bilan bezash uchun ilgak ustiga halqa solinadi va yetakchi ustunchadan 3-4 ta halqa tashlab do'ppi cheti bo'ylab ip ilgak uchida tortiladi. Ilgakda 3ta halqa bo'ladi. Avval ulardan ikkitasini to'qiyimiz, so'ngra ilgakda yetakchi halqa qolguncha yana ikkitasini to'qiyimiz. Birinchi ustuncha hosil bo'lgach, yana ilgakni o'sha halqaga suqib, ikkinchisini, uchinchisini va hokazo, to yettinchi ustuncha hosil bo'lguncha to'qiyimiz. Bitta halqadan chiqqan yelpig'ichsimon ustunchalar dastasi hosil bo'ladi. Chapdan 3-4 ta halqa tashlab yetakchi halqani ilgakni do'ppi chetiga sukamiz va ipni ilib olib ustamasiz ustuncha to'qiyimiz. so'ngra boshqa kunguralarni ham shu usulda to'qiyimiz. Do'ppi ustamali ustunchalar bilan to'qilsa, vaqt ancha tejaladi, chunki bunday to'qishda, har bir qator to'qilgach, buyum sezilarli darajada kattalashadi. Oddiy ustunchalar bilan to'qilgandagidek, bu holda ham har bir qatorga 5-6tadan ustamali ustuncha ya'ni bitta halqaga ikkita ustuncha qo'shib boriladi. 10-11sm diametrli doira tayyor bo'lgach, halqa qo'shish 2-3 ga kamaytiriladi.

Nazorat uchun savollar

1. To'qish, halqalarni hosil qilish usullari
2. To'qish texnologiyasi?

9-mavzu. Chinni xamir bilan islash texnologiyasi.

Reja:

1. Chinni xamirni tayyorlash usullari.
2. Sovuq xolda ishlanuvchi chinni xamirining paydo bo'lish tarixi;
3. Chinni xamiridan ishlangan maxsulotlarning o'ziga xos xususiyatlari;
4. Chinni xamiridan nimalar yaratish mumkin;
5. Uy sharoitida chinni xamirini tayyorlash;
6. Ganch uchun kerak bo'ladigan asboblari;
7. Chinni xamiridan sakura gulini yaratish ta'rifi.

Sovuq xolda ishlanuvchi chinni xamiridan buyumlar yasash bu o'z qo'lingiz bilan mo'jiza yaratish san'atidir. Chinni xamiri bu – hozirgi paytdagi xammabop sodda, arzon va ishlov uchun eng mos bo'lgan ganch xomashyosidir. Chinni xamir bilan islash jarayoni mutlaqo xavfsiz va xech qanday ko'nikma va malakalar talab qilmaydigan mashg'ulotlardan bo'lib, bu jarayon bilan xattoki kichkina bola xam shug'ullana oladi. Bunday xomashyoni uy sharoitida xam tayyorlasa bo'ladi, bu esa o'z xayolidagini amalga oshirish, o'z qo'lingiz bilan san'at asarini yaratish uchun qulay imkoniyatdir.

Tashqi ko'rinishiga ko'ra chinni xamiri loy yoki plastilin bo'lagini eslatadi, lekin uni quritganimizdan so'ng u qattiq konsistensiyaga ega bo'lishi bilan loy va plastilindan farqlanadi. Ganchkorlik bilan undan turli bezaklar yasashimiz mumkin. Bunday bezaklarga mayda munchoqlardan tortib chig'anoqlar, tugmalar, shoxchalar

yoki quritilgan gullar, to‘qish yok zardo‘zlik ishidan ortib qolgan mayda ip bo‘laklarini qo‘shib yasalgan ajoyib buyumlarni misol qilib ketirishimiz mumkin. Sovuq xolda ishlanuvchi chinni xamiridan yasalgan buyumlarni bo‘yash, qum yoki biser yordamida qoplash yoki laklash mumkin.

Sovuq xolda ishlanuvchi chinni xamirining paydo bo‘lish tarixi. Bu xomashyodan tayyorlangan ilk bumlarning tayyorlanish sanasiga e‘tibor berilsa ular XIX asrning boshlarida yasalganini ko‘rish mumkin.

Ma‘lumotlarga ko‘ra u argentinaliklar tomonidan kashf qilingan, lekin uning kelib chiqish joyi va aniq sanasi xaqidagi ma‘lumotlar yo‘q. Faqatgina XIX asrning boshida zavodda ishla chinnidan turli noyob buyumlarni yasagan rus ustasi Petr Ivanov xaqida ko‘plab ma‘lumotlar mavjud. Agar Peterburg shaxridagi bu zavodning arxiv ma‘lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, chinni xamiridan gullarni birinch bo‘lib aynan Petr Ulyanovich yasagan. Ularni imperator va uning oilasiga jo‘natiladigan atir va xushbo‘ylashtirish suvlarining flakonlariga bezak sifatidan ishlatganlar. Ammo bu xomashyoning undan xam oldinroq mavjud bo‘lganini bildiruvchi ma‘lumotlar bor. Sana‘at va xaykaltaroshlik xaqidagi Xitoy traktatlarida chinni xamiridan yasalgan ganchkorlik xaqida yozishmalar mavjud. Ammo uning nomlanishi boshqacha bo‘lib, tayyorlanish jarayoni esa Petr Ivanov qo‘llagan usul bilan mutlaqo bir xildir.

Chinni xamiridan yasalgan buyumlarning o‘ziga xosliklari. Bu xomashyodan tayyorlangan buyumlar xaqiqatdan go‘zal va shuning bilan birga o‘ziga yarasha xususiyatlari mavjud. Ularni nam va tik quyosh nurlari yetmaydigan joyda saqash lozim. chinni xamiri polimer loy bo‘lib, namni o‘ziga singdirib olib uning ta‘sirida ivib ketishi yoki quyosh nurlari ta‘sirida o‘z rangini yo‘qotishi mumkinligini esda tutish lozim. Chinni xamiridan yasalgan gullar yoki boshqa buyumlarni oyna tokchasiga yoki suv yaqiniga qo‘yish mumkin emas.

Bunday buyumlar saqlanadigan xonalarda ular uchun optimal xavo xaroratini tutib turish kerak. Agar xavo 10 gradusdan tushib ketsa bumlar tuzilishi o‘zgaradi, ya‘ni tarkibidagi namlik kristallanadi. Yuqori xarorat xam chinni xamiriga yomon ta‘sir qiladi, ular shunchaki qurib sochilib ketadi. Chinni xamiridan yasalgan buyumlarning yaroqlilik muddatini uzaytirish uchun ularni lak bilan bo‘yab qo‘ysa bo‘ladi. Lak nafaqat namlikdan asraydi, balki shaklni rang va yorqinligini ximoya qilib turadi.

Chinni xamiridan nimalar yasasa bo‘ladi. Bu xomashyodan istalgan narsani yasasa bo‘ladi, ayollar uchun bezakdan tortib, inte‘er uchun katta bo‘lmagan bezaklarni xam xattoki. Chinni xamiridan yasalgan gullar bilan bezatilgan soch to‘g‘nog‘iyalari juda xam antiqa ko‘rinadi. Bo‘lalar uchun qo‘llaganda, uni bolalar bilan o‘tirib birgalikda ertak qaxramonlarini yasasa bo‘ladi, ularning sevimli multfilmlaridagi qaxramonlarni yasab ularni xonalarini bezatsa bo‘ladi. Ko‘pgina ijodkor uy bekalari gultuvaklarini, turli ramkalar, lampalar va vazalarni chinni xamiridan foydalangan xolda bezaydilar. Inter‘erning noyob bezaklariga chinni xamiridan yasalgan gullardan girlyandalar, jonivorlarningg shakllari yoki tematik kompozitsiyalarni misol qilib keltirsa bo‘ladi. Bundan tashqari do‘stlar va yaqinlar uchun original va qimmatbaxo bo‘lmagan sovg‘alarni tayyorlash mumkin.

Chinni xamirini qanday tayyorlash mumkin? Ganch uchun kerak bo'lgan polimer loyni tayyorlash qiyin emas. Chinni xamirining eng sodda tayyorlanishi quyidagicha: guruch yoki jo'kori kraxmali, PVA yelimi, glitserin va bolalar uchun kremdan 1:1 nisbatdagi aralashmasi, (1 stakan yelim va kraxmal) va 2:1 nisbatdagi (osh qoshiq glitserin va krem). Maxsulotlar yaxshilab aralashtiriladi va 10 – 20 minutga olib qo'yiladi. Xamidagi maxsulotlar bir-biriga singib, ganch uchun optimal bo'lgan konsistensiyaga keladi. Ularni sovutgichda saqlash yoki xona xaroratida ikki soatdan ortiq muddatda olib qo'yish mumkin emas. Maxsulotdan darrovgina ko'zlangna buyumni yasash va tayyorlangan massani xammasini ishlatib yuborish maqsadga muvofiqdir. Ba'zi ustalar xamirga limon kislotasidan qo'shadilar. Bunda yasalgan maxsulot limon kislotasi xosil qilgan konservatsiya effekti xisobiga yaroqlilik muddati uzayadi. Suv aralashtirilgan tayyorlash texnikalarini xam uchratish mumkin, ammo bunda yasalgan buyum uzoqqa yetmaydi va juda nozik bo'ladi. Suv tashqi faktorlarning ta'siri ostida loy tarkibidagi boshqa maxsulotlar bilan reaksiyaga kirishadi va natijada yoqimsiz xid paydo bo'lishi mumkin, buyumning shakli o'zgaradi, va uning mustaxkamliligi pasayadi.

Rangini o'zgartirish uchun odatda ozuqaviy ranglardan meldan foydalaniladi. Ammo chinni xamiridan yasalgan buyumlarni bo'yash imkoniyati mavjud bo'lganligini xisobga olgan holda uni to'liq qurigach ya'ni bir sutkadan so'ng bo'yash tavsiya etiladi.

Ganch uchun kerak bo'ladigan jixozlar

O'qlov va qaychilar, pinset va o'tkir jag'li ombir, tish tozalash tayoqchalari, mo'yqalam hamda bo'yoqlar, dekorativ kosmetika, qo'lqoplar va ishlov berish uchun mo'ljallangan taxta, nam salfetkalar, ingichka ip xamda maxsulotning bo'laklarini biriktirish uchun yelim.

Bunday yoqimtoy ko'rinishli qarg'achani yasash – bolalar bilan vaqt o'tkazishning eng maqbul variantidir. Bunda xar bir bola bir-biriga o'hshamagan qushchalarni yasashi maqsadga muvofiqdir. Chinni xamiri bilan ishlash odamga roxat bag'ishlaydi. Polimer loyda qolganidan farqli o'laroq unda barmoq izlari qolmasligi tufayli uni pechda toblash shart emas, uning o'zi ochiq xavoda qurib qoladi.

Demak, chinni xamiridan qarg'achani yasashimiz uchun kerak bo'ladigan jixozlar:

Xavorang yoki sariq rangdagi chinni xamiri, ikki dona qora munchoq hamda ganch uchun kerakli asboblari.

Birinchi bosqich. Agar ish uchun olingan chinni xamiri rangsiz bo'lsa uni istalgan rangga osonlikcha bo'yab olish mumkin. Xamirni yoyib ungi kam kam miqdorda akril bo'yog'idan qo'shamiz. Xosil bo'lgan massani rang bir tekisda yoyilib ketgunga qadar yaxshilab qorishtiramiz. Agar xosil bo'lgan rangdan ko'nglingiz to'lmasa yana rang qo'shishingiz mumkin bo'ladi.

Xavorang chinni xamirini yoyib undan ikkita dumaloq shakl xosil qiling. Kattasi tanasi uchun, kichigi bosh uchun. Katta bo'lagidani barmoqlar yordamida chuqur bo'lmagan qayiq shaklini xosil qilamiz. Ikki dona yassa tomchisimon qanotlarni yasaymiz. Sariq xamirdan piramida shaklida tumshuqchani va dumaloq shakldagi panjalarni xosil qilamiz.

Ikkinchi bosqich. Qanot va bosh qismlarini tanaga biriktiramiz. Qanotlarga tish tozagich tayoqcha uchni bosib chiqamiz.

Uchinchi bosqich. Tumshuqni bosh qismiga biriktiramiz. Tish tozaagichni uchkur tomoni bilan tumshuq qismida o'yi q xosil qilamiz.

To'rtinchi bosqich. Munchoqlarni ko'z o'rniga qadab chiqamiz. Qosh o'rniga egatcha xosil qilamiz va yuzidan uchta chiziq xosil qilamiz. Yupqa o'qlov shaklida xamir yoyib bosh qismiga kokolcha o'rnida biriktiramiz.

Beshinchi bosqich. Qanotlariga, dumlariga egatchalar urib chiqamiz xamda quritish uchun xona xaroratida qoldiramiz.

Shu texnika bo'yicha qushchalarning shaklini plastilin va ozuqaviy mastikadan yasasa bo'ladi. Guvoxi bo'lganingizdek, qushcha shaklini chiqarish mutloq murakkab emas, bu ishini bolalar xam bemalol qila oladi. Shunday qilib qushlarning katta kolleksiyasini yaratsangiz bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. Chinni xamirni tayyorlash usullari.
2. Sovuq xolda ishlanuvchi chinni xamirining paydo bo'lish tarixi;
3. Chinni xamiridan ishlangan maxsulotlarning o'ziga xos xususiyatlari;
4. Chinni xamiridan nimalar yaratish mumkin;
5. Uy sharoitida chinni xamirini tayyorlash;
6. Ganch uchun kerak bo'ladigan asboblari;
7. Chinni xamiridan sakura gulini yaratish ta'rifi?



AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI



1-amaliy mashg'ulot: Ijodiy faoliyatga o'rgatish maqsad va vazifalari (2 soat)

Reja:

1. Ijodiy faoliyat turlari.
2. Bolalarni xar tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning ahamiyati.

Mashg'ulotning borishi:

1-topshiriq: Ijodiy faoliyatga o'rgatish maqsad va vazifalarini o'rgatishda "B/B/B" texnologiyasini qo'llash

"B/B/B TEXNOLOGIYA SI" NI QO'LLASH

B/B/B JADVALI - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim.

№	Mavzu savollari	Bilaman	Bildim	Bilishni xohlayman
1.	Ijodiy faoliyat turlari.			
2	Bolalarni xar tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning ahamiyati.			

2-topshiriq: Bolalarni xar tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning ahamiyatini «Tushunchalar tahlili» uslubida to'ldiring

"Tushunchalar tahlili" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;

- belgilangan vaqt yakuniga yetgach pedagog berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

-har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

TUSHUNCHALAR	MAZMUNI

2-amaliy mashg‘ulot: Qog‘ozdan buklash yo‘li bilan o‘yinchoq yasash (“Origami usuli”).(2 soat)

Reja:

1. O‘rigami san’atining kelib chiqish tarixi.
2. Origami usulida o‘yinchoq yasash.

Mashg‘ulotning borishi:

1. 1-topshiriq: O‘rigami san’atining kelib chiqish tarixi mavzusida “Davra suhbat” o‘tkazish

“Davra suhbat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e‘lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.

4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

1. 2-topshiriq: O'rigami san'atining kelib chiqish tarixini BBB texnologiyasida qo'llash

“B/B/B TEXNOLOGIYASI”NI QO‘LLASH

B/B/B JADVALI - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim.

№	Mavzu savollari	Bilaman	Bildim	Bilishni xohlayman
1.	O'rigami san'atining kelib chiqish tarixi.			
2	Origami usulida o'yinchoq yasash.			

3-amaliy mashg'ulot: Applikatsiya xaqida umumiy tushuncha(2soat)

Reja:

2. Applikatsiyada qirqishni har xil usullarini bajarish.
3. Mazmunli va bezakli applikatsiyalar.

Mashg'ulotni borishi:

1- topshiriq: Teatr - saxnalashtirish faoliyatiga oid blis-so'rov savol o'tkazish.

Blis-so'rov:

Applikatsiyada qirqishni har xil usullarini bajarish.

Mazmunli va bezakli applikatsiyalar.

2- topshiriq: Applikatsiyada qirqishni har xil usullarini bajarishni o'rganishda o'tkaziladigan "Muammoli vaziyat"

"Muammoli vaziyat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

4- amaliy mashg‘ulot: Pape-mashe usuli. (2 soat)

Reja

1. Pape-mashe usulida o‘yinchoqlar yasash.
2. Pape-mashe usulida turli buyumlar yasash.

Pape-mashe usulida turli buyumlar yasashning ahamiyati “Aqliy hujum” metodidan foydalanish o‘rganish.

Mashg‘ulotning borishi:

1-topshiriq: Maktabgacha ta’lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatini.

“VENN diagrammasi”da bajarish

Venn diagrammasi- 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar:

- 1) kichik gurlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarida rivojlangan davlatlar ta’lim tizimiga oid fikrlarini oydinlashtirib olib, to‘ldiradilar;
- 2) juftliklarga birlashadilar, o‘zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to‘ldiradilar;
- 3) doiralarning kesishuvchi joyida ikki doira uchun umumiy bo‘lgan fikrlar ro‘yxatini tuzadi;
- 4) ish natijalarining taqdimoti.

“Pape-mashe usulida o‘yinchoqlar yasash” tushunchasi va uni rivojlantirish vazifalarini

“VENN diagrammasi”da to‘ldiring

2-topshiriq: Pape-mashe usulida o'yinchoqlar yasash. Pape-mashe usulida turli buyumlar yasashning axamiyati "Aqliy hujum" metodidan foydalanish

Metodning maqsadi: biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. "Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. "Aqliy hujum" metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. "Aqliy hujum" metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. "Aqliy hujum" metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda - yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda - mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

"Aqliy hujum" metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

Bildirilgan fikr - g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.

Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

"Aqliy hujum" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;

ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitofonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;

fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;

yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

Muammoli savol beriladi. Fikr va g'oyalar eshitiladi va jamlab boriladi. Fikr va g'oyalar guruhlanadi. Aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr- g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boradi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

Munosabat: bolalarga yorqin emotsional munosabatlar, tasvirlangan voqealar va qaxramonlarga faol ko'maklashish xamda ular xaqida qayg'urish xosdir. Bolalar kitob, she'r va xalq qo'shiqlari bilan takroran uchrashishga intiladilar. Ular dono fikr, xazil, qofiyadosh so'zlardan zavqlanadilar va ularni esda saqlab qolishni xamda o'z nutqida qo'llashni xoxlaydilar.

5- amaliy mashg'ulot: Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash.(2 soat)

Reja

1. Tabiiy buyumlar ishlash usullari.
2. Tashlandiq buyumlardan o'yinchoq yasash

Mashg'ulotninig borishi:

1- topshiriq: Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash.

Kichik guruhlara Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash yorituvchi “Ikki sahifali kundalik”ni shakllantirish

Tinglovchilar uchun quyidagi ish qog'ozi tavsiya etiladi:

1-sahifa Turli yosh guruxlarda
saxnalashtirish faoliyatining maqsadi -

2- sahifa Turli yosh guruxlarda
saxnalashtirish faoliyatining vazifalari –

2- topshiriq: Maktabgacha ta`lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlashni “BBB” tenologiyalarida ko‘rib chiqish.

BBB JADVALI - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim.

	Mavzu savoli	Bilaman	Bildim	Bilishni xohlayman
1.	Maktabgacha ta`lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash			
2	tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash usullari			

6-amaliy mashg‘ulot: Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi.

(2 soat)

Reja:

1. Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi.
2. Kashta turlari.
3. Bezakli va mazmunli kashtalar.

Mashg‘ulotning borishi:

1-topshiriq: Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasini

“Aqliy hujum”, “Klaster” metodi, va boshqa usullaridan keng foydalanib kelinmoqda.


TARMOQLAR” METODI (KLAUSTER)

Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tashkil etiladi:

1. Xayolga kelgan har qanday fikr ketma-ket yoziladi.
2. Fikrlar tugamaguncha yozishda davom ettirish kerak, fikrlar tugab qolsa, u holda yangi fikr kelguncha biron rasm chizib turing.
3. Iloji boricha fikrlarning ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligini ko‘paytirishga intiling.
4. So‘zlar ketma- ketligi faqat “nima?” degan so‘rog‘iga javob berishi lozim.

Ushbu metod yakka, kichik guruh, jamoa bilan ishlashda qo‘llanishi mumkin. Guruh holatida qo‘llanilishi guruhlar fikrini to‘plash va ularni bir tizmdagi qurilmaga keltirish mumkin.

“Tarmoqlash” metodidan foydalanish



2-topshiriq: Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasini «Tushunchalar tahlili» uslubida to‘ldiring

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- tinglovchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;

- belgilangan vaqt yakuniga yetgach pedagog berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

-har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

TUSHUNCHALAR	MAZMUNI
Kashtachilik	
Kashta	
Kashtachilik tarixi	

7-amaliy mashg'ulot: Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash.

(2 soat)

Reja

1. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash turlari.
2. Yumshoq o'yinchoqlarning bola tarbiyasida ahamiyati.

Mashg'ulotning borishi:

1-topshiriq:

Yumshoq o'yinchoqlarning bola tarbiyasida ahamiyatini

3 x 4 texnologiyasi

Ushbu texnologiya orqali biron bir mavzuni yoki atamani har tomonlama hususiyatlarni guruhlar orqali ma'lum vaqt ichida mohiyatini yoritiladi. Bunda to'rtta guruh mavzuga doir uchtdan fikr yozadi. Jami fikrlar o'n ikkita chiqishi kerak. Shunisi muhimki guruhlar bir-birini fikrini takroran yozmasligi kerak.

Maqsadi: Ushbu texnologiya orqali ishtirokchilarning xarakter tomonlari, ichki kechinmalarini ham ko'rishimiz mumkin. Texnologiyani qo'llaganda guruhlarini faollikka, aqliy hujumni faolligiga, mantiqiy fikrga, savodxonlikka dunyoqarashni kengayishiga o'zgarlar fikrini hurmat qilishga erishiladi.

Xulosa: 3x4 texnologiyasini yangi mavzuni bayon etishda mustahkamlashda, uyga vazifani so'rashda qo'llashimiz mumkin.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.

Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.

Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.

Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;

muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;

vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;

o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;

barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;

guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;

guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

2-topshiriq:

Yumshoq o‘yinchoqlarning bola tarbiyasida ahamiyatini Venn diagrammasida ko‘rib chiqish.

“VENN diagrammasi”da bajarish


Venn diagrammasi- 2 va 3 jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tinglovchilar:

- 1) kichik gurlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarida rivojlangan davlatlar ta'lim tizimiga oid fikrlarini oydinlashtirib olib, to'ldiradilar;
- 2) juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar;
- 3) doiralarning kesishuvchi joyida ikki doira uchun umumiy bo'lgan fikrlar ro'yxatini tuzadi;
- 4) ish natijalarining taqdimoti.

Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash turlari tushunchasi va uni rivojlantirish vazifalarini "VENN diagrammasi"da to'ldiring



8- amaliy mashg'ulot: O'yinchoqlar to'qish texnologiyasi.(2soat)

Reja:

1. Ilmoq bilan o'yinchoqlar to'qish usullari.
2. Spitsa bilan o'yinchoqlar to'qish usullari.

Mashg'ulotning borishi:

1- topshiriq: O'yinchoqlar to'qish texnologiyasini «XULOSALASh» metodidan foydalanish.

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy vaseminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:

pedagog ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;

trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;

har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib,

o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma

bayon qiladi;

navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar.

Shundan so‘ng, pedagog tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

2- topshiriq: O‘yinchoqlar to‘qish texnologiyasini “B/B/B” texnologiyasini qo‘llash

“B/B/B TEXNOLOGIYASI”NI QO‘LLASH

B/B/B JADVALI - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim.

№	Mavzu savollari	Bilaman	Bildim	Bilishni xohlayman
1.	O‘yinchoqlar to‘qish texnologiyasini			
2	Ilmoq bilan o‘yinchoqlar to‘qish usullari.			

3.	Spitsa bilan o'yinchoqlar to'qish usullari.			
----	---	--	--	--

9- amaliy mashg'ulot: Chinni xamir bilan islash texnologiyasi.(2 soat)

Reja:

1. Chinni xamir bilan islash texnologiyasi.
2. Chinni xamirni tayyorlash usullari.
3. Chinni xamirdan tirli o'yinchoqlar tayyorlash usullari.

Mashg'ulotning borishi

1- topshiriq: Chinni xamir bilan islash texnologiyasini rivojlantirishda "INSERT" USULI

Samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib o'rganishga yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari kitob va boshqa materiallar oldindan tinglovchiga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib "V"; "+"; "-"; "?" belgilar orqali o'z fikrini ifodalaydi.

(V)- Men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+)- Yangi ma'lumot

(-)-Men bilgan narsaga zid.


(?)-Meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

"Insert" usuli jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Chinni xamir bilan islash texnologiyasi.				
Chinni xamirni tayyorlash usullari.				
Chinni xamirdan tirli o'yinchoqlar tayyorlash usullari.				

2- topshiriq: Chinni xamirdan tirli o'yinchoqlar tayyorlash usullarini «Nima uchun?» texnikasida tayyorlash.

«Nima uchun?» texnikasining sxemadagi ko'rinishi



«Nima uchun?» texnikasi sxemasini tuzish qoidalari

1. Mulohazalarning sxematik ko‘rinishi qanday bo‘lishini o‘zingiz hal etasiz.
2. Har bir strelka fikr yo‘nalishini ko‘rsatishi lozim.

SEMINAR MAШFУЛОТ МАТЕРИАЛЛАРИ

1-seminar mashg'ulot: Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash.(2 soat)

Reja:

1. Tabiiy buyumlar ishlash usullari.
2. Tashlandiq buyumlardan o'yinchoq yasash

Mashg'ulotning borishi:

1-topshiriq: Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlashda "B/B/B" texnologiyasini qo'llash

"B/B/B TEXNOLOGIYA"NI QO'LLASH

B/B/B JADVALI - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim.

№	Mavzu savollari	Bilaman	Bildim	Bilishni xohlayman
1.	Tabiiy buyumlar ishlash usullari.			
2	Tashlandiq buyumlardan o'yinchoq yasash			

2-topshiriq: Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlashni «Tushunchalar tahlili» uslubida to'ldiring

"Tushunchalar tahlili" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- tinglovchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;

- belgilangan vaqt yakuniga yetgach pedagog berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

-har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

TUSHUNCHALAR	MAZMUNI

2- seminar mashg‘ulot: Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi.

(2 soat)

Reja:

1. Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi.
2. Kashta turlari.
3. Bezakli va mazmunli kashtalar.

Mashg‘ulotning borishi:

1-topshiriq: Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi haqida tushuncha mavzusida “Davra suhbat” o‘tkazish

“Davra suhbat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e‘lon qilinadi.
2. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta‘lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta‘lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta‘lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.

4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

2-topshiriq: Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasini BBB texnologiyasida qo'llash

“B/B/B TEXNOLOGIYASI”NI QO‘LLASH

B/B/B JADVALI - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim.

№	Mavzu savollari	Bilaman	Bildim	Bilishni xohlayman
1.	Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi.			
2	Kashta turlari.			
3.	Bezakli va mazmunli kashtalar.			

3- seminar mashg'ulot: Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash.

(2soat)

Reja:

1. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash.
2. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash turlari.
3. Yumshoq o'yinchoqlarning bola tarbiyasida ahamiyati.

Mashg'ulotni borishi:

1- topshiriq: Teatr - saxnalashtirish faoliyatiga oid blis-so'rov savol o'tkazish.

Blis-so'rov:

1. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash.
2. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash turlari.
3. Yumshoq o'yinchoqlarning bola tarbiyasida ahamiyati.

2- topshiriq: Yumshoq o'yinchoqlarning bola tarbiyasida ahamiyatini o'rganishda o'tkaziladigan "Muammoli vaziyat"

"Muammoli vaziyat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

4- seminar mashg'ulot: O'yinchoqlar to'qish texnologiyasi.

(2 soat)

Reja

1. Ilmoq bilan o'yinchoqlar to'qish usullari.
2. Spitsa bilan o'yinchoqlar to'qish usullari.

Mashg'ulotning borishi:

1-topshiriq: O'yinchoqlar to'qish texnologiyasi.

“VENN diagrammasi”da bajarish

Venn diagrammasi- 2 va 3 jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.


Tinglovchilar:

- 1) kichik guruhlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarida rivojlangan davlatlar ta'lim tizimiga oid fikrlarini oydinlashtirib olib, to'ldiradilar;
- 2) juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar;
- 3) doiralarning kesishuvchi joyida ikki doira uchun umumiy bo'lgan fikrlar ro'yxatini tuzadi;
- 4) ish natijalarining taqdimoti.

“O'yinchoqlar to'qish texnologiyasi.

” tushunchasi va uni rivojlantirish vazifalarini

“VENN diagrammasi”da to'ldiring



2-topshiriq: O'yinchoqlar to'qish texnologiyasiining ahamiyati "Aqliy hujum" metodidan foydalanish

Metodning maqsadi: biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. "Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. "Aqliy hujum" metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. "Aqliy hujum" metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. "Aqliy hujum" metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda - yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda - mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

Bildirilgan fikr - g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.

Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;

ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitofonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;

fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;

yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

Muammoli savol beriladi. Fikr va g‘oyalar eshitiladi va jamlab boriladi. Fikr va g‘oyalar guruhlanadi. Aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr- g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boradi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

Munosabat: bolalarga yorqin emotsional munosabatlar, tasvirlangan voqealar va qaxramonlarga faol ko‘maklashish xamda ular xaqida qayg‘urish xosdir. Bolalar kitob, she‘r va xalq qo‘shiqlari bilan takroran uchrashishga intiladilar. Ular dono fikr, xazil, qofiyadosh so‘zlardan zavqlanadilar va ularni esda saqlab qolishni xamda o‘z nutqida qo‘llashni xoxlaydilar.

КЕЙСЛАР БАНКИ

1-Keys. Xalq ta'limi vazirligining 2017 yil 9 iyundagi "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqida"gi 5-mh-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va 2017 yil 17 iyul kuni Adliya vazirligi tomonidan № 2898-son buyrug'ining mazmuni, maqsadini atroflicha yoritib bering.

Topshiriq: Ushbu qarorning qabul qilinishiga nima sabab bo'ldi?

Muammo turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo'llari

2-Keys. bayoni. Majlisda tarbiyalanuvchining onasi so'z olib, tarbiyachiga: "Mening o'g'lim – Xurshid hech qachon MTMda tashkil etiladigan tadbirlarda qatnashmaydi, she'rlar o'qimaydi, raqs tushmaydi. Ayting-chi, nima uchun siz uni e'tibordan chetda qoldirasiz?" – dedi.

Keys savoli. Sizning harakatlaringiz qanday bo'ladi?

Manba: "Pedagogika", "Muloqot etikasi", "Nutq o'stirish metodikasi" "Muloqot psixologiyasi" bo'yicha manbalar.

Tahlil: tarbiyachi o'z xatti-harakatlarini asoslay olmasa, ota-onalarning oldida obro'si tushadi. Qolaversa, haqiqatdan ham tadbirlarda imkon qadar barcha bolalarning ishtirokini ta'minlash uchun muhit yarata olishi kerak.

Pedagogning yechimi: tarbiyachi bolaning onasidan uzr so'ragan holda, "Buni Sizlarga avvaldan ma'lum qilmoqchi edim. Men shartli ravishda guruh tarbiyalanuvchilarini ma'lum guruhlarga ajratib olganman. Ma'lum vaqtda tadbirlarda dastlab 1-guruh, keyin 2-guruh, so'ngra 3-guruhning a'zolari ishtirok etishadi. Bizning farzandingiz ...(2 -3)-guruhda keyingi tadbirlarda uning ishtiroki ta'minlanadi", - deyishi yuzaga kelgan noqulay holatni bartaraf etadi.

3-Keys bayoni. Maktabgacha ta'lim muassasasida badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlarida ananaviy va noananaviy ta'lim texnologiyalari afzallik yoki kamchiliklari

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Yechim	Natija
Maktabgacha ta'lim muassasasida badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlarini sifat va samaradorligini	An'anaviy ta'lim texnologiyasi - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq tarbiyachi shaxsiga qaratilgan bo'lib,	Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida ta'lim oluvchi shaxsi bo'lib, o'qitishning

oshirishda ananaviy va noananaviy ta'lim texnologiyalari afzallik yoki kamchiliklari	mashg'ulotning an'anaviy shakli, metodi va ta'lim vositalaridan foydalanib ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishdir. Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida bola shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir.	zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir.
---	--	--

4-Keys bayoni. Ish kuni tugadi. Farruh (4 yoshli tarbiyalanuvchi)ning uyidan uni olib ketish uchun hech kim kelmadi. Navbatchilik vaqtingiz tugashidan bir yarim soat o'tgach, Farruhni olib ketish uchun uning dadasi keldi. Biroq, u mast edi. Tarbiyachi ham uyiga kechikmoqda. Qolaversa, uyigacha yo'l uzoq.

Keys savoli. Tarbiyachining o'rnida Siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

Manba: "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi, "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi" fanlari bo'yicha materiallar.

Tahlil: Mast holdagi kishiga tarbiyalanuvchini topshirib bo'lmaydi. Shuning uchun har qanday holatda ham Farruhni uning dadasi bilan qoldirib keta olmaydi.

Pedagogning yechimi: Farruhni bog'cha joylashgan hududidagi "Qo'riqlav tayanch bo'limi" yoki "Mahalla fuqarolari Kengashi" idorasida qoldirishi lozim.

5-Keys bayoni. Nodir (5 yoshli tarbiyalanuvchi)ni olib ketish uchun bolalar bog'chasiga uning dadasi keldi. Dadasini ko'rgan Nodir bolalarni ura boshladi. Dadasi esa: "Barakalla, o'g'lim! Ularga qanday erkak ekanligingni ko'rsatib qo'y!", - deb uni ruhlantirdi.

Keys savoli. Bunday vaziyatda Siz qanday yo'l tutasiz?

Manba: "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi", "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi" fanlari bo'yicha materiallar.

Tahlil: Kattalar hech qachon boshqalarga nisbatan zoʻrlik, zoʻravonlikni targʻib qilmasliklari kerak. Qolaversa, boshqalarga zoʻravonlik qilish “erkaklik” belgisi sanalmaydi. Bu vaziyat otaning maʼnaviyati qashshoq ekanligini koʻrsatadi.

Pedagogning yechimi: tarbiyachining “Biz Nodirning qanchalik kuchli ekanligini bilamiz. Ammo u oʻz kuchini boshqalarni urish uchun sarflamasligi kerak. Ertaga men bir ertak misolida kuchni nimalarga sarflash kerakligini aytib beraman. Hozir esa, menimcha, Nodir oʻz oʻrtoqlaridan kechirim soʻrasa, u oʻzini haqiqatdan kuchli ekanligini isbotlaydi. Amakingiz sizlarni qanday kuchga egaliklaringizni sinab koʻrmoqchi boʻldilar” qabilida yoʻl tutishi maqsadga muvofiqdir.

6-Keys topshirigʻi: Tarbiyachilarning ilgʻor ish tajribalarini oʻrganish

Guruh baxosi	Guruh xatosi	Toʻgʻri javob	Yakka xato	Yakka baxosi	Muomolar yechimi
					Mashgʻulot mavzusini belgilash
					Mashgʻulotning rejasini tuzish
					Mashgʻulotning maqsadini belgilash
					Mashgʻulotning mazmunini tanlash
					Mashgʻulot oʻtkaziladigan joyni jixozlash xamda kerakli texnikani tayyorlash
					Mashgʻulotni boshlash yoʻlini tanlash va uning ishlanmasini yozish
					Mashgʻulotni vaqtlarga boʻlish
					Boʻlajak mashgʻulotning eng qiziqarli, taʼsirli nuqtalarini tanlash
					Oʻtkazilgan mashgʻulotning yakuniy taxlili va keyingi mashgʻulotga tayyorgarlik

7-Keys bayoni. Fazliddin jismoniy zaif. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar doim uning ustidan kulishadi, mazax qilishadi. Tarbiyachi undan biror narsani so'rsa yoki she'rni yodlab, aytib berishni aytsa, u hayajon va qo'rquvdan tutilib-tutilib gapiradi. Tarbiyachi uning bu holatini salbiy qabul qiladi va Fazliddinga shunday deydi: "O'tir, senga biror-bir topshiriq ham berib bo'lmaydi. Bunday holatda ertaga kim bo'lasan?"

Tarbiyachi tarbiyaning qanday tamoyilini buzyapti?

Sizningcha, tarbiyachi bu vaziyatda qanday yo'l tutishi kerak?

Manba: "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi", "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi" fanlaridan darslik, o'quv qo'llanma va materiallar.

Tahlil: 1. Odatda jismonan zaif, tengdoshlari tomonidan kamsitiladigan bolalar kattalarning yordami, ko'magiga muhtoj bo'lishadi. Aks holda, ular o'z nuqsonlaridan uyalish oqibatida, o'ziga ishonchsiz, jur'atsiz va atrofdagilarga alamli munosabatda bo'ladigan shaxs bo'lib yetishadi.

2. Ko'p hollarda bolalar zaif tengdoshlarining ustidan kulishga moyil bo'lishadi. Bu ularning oilada va mikromuhitda olayotgan tarbiyasi bilan bog'liq. Bolalarga yoshlikdanoq zaif tengdoshlari ustidan kulish emas, aksincha, unga yordam berish kerakligini uqtirib borish zarur. Aks holda ular kelgusida xudbin va shavqatsiz inson bo'lib yetishishlari mumkin.

Pedagogning yechimi: tarbiyachi Fazliddinning nuqsoniga salbiy munosabatda bo'lmay, aksincha, guruhda do'stona munosabat va o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlashga asoslangan muhitni shakllantirishi zarur. U Fazliddinni qo'llab-quvvatlashi, unga dalda berishi, har bir muvaffaqiyati uchun uni rag'batlantira olishi lozim. Qolaversa, tarbiyachi Fazliddinning nuqsonini inobatga olgan holda unga ko'proq nutq bilan bog'liq bo'lmagan, uni qiziqтира oladigan boshqa amaliy topshiriqlar (m: plastilindan, qiyqimlardan, loydan turli buyumlar yasash, rasmlar chizish kabilar)ni berishi kerak. Bu kabi vazifalar Fazliddinga o'z qobiliyatini namoyon qilish uchun imkoniyat yaratadi. Balki u butunlay zaif emasdir?

8-Keys bayoni. Ertak va hikoyalarni bolalar ko'pincha o'zlarining ijodiy rolli o'yinlarida sahnalashtiradilar, bu o'yinlarda bolalar ertakni sahnalashtirishni juda sevadilar.

Keys savoli. Tulki, sichqon, xo'roz, quyon kabi personajlarni o'yinlarda aks ettiradilar. Bolalar bilan suhbatlasha turib, tarbiyachi hikoya yoki ertak qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi. Har xil she'r, ertak qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlari mana shunday o'rganiladi.

Manba: «Sholg'om», «Bo'g'irsoq», «Tulki, xo'roz va quyon» kabi

Tahlil: Sahnalashtirish ishini quydagi bosqichlar bo'yicha o'tkazish mumkin:

1-bosqich. Adabiyotlarni tanlash. Sahnalashtirish uchun adabiyot tanlaganda quydagi talabga rioya qilish kerak:

1. Ertak, hikoya yoki she'rda qatnashuvchilar ko'p bo'lishi kerak.
2. Asarda mazmun yaxshi bo'lib qolmasdan, harakatlarning xili ham ko'p bo'lishi kerak..
3. Asar ifodali o'qishga mos kelishi shart.
4. Mazmuni qiziqarli bo'lishi kerak.
5. Asar bolalarning yoshiga mos kelishi kerak.

2-bosqich. Sahnalashtirishi uchun tanlangan hikoya, she'r yoki ertakning mazmunini o'qib berish yoki qo'g'irchoq, soya teatirida ko'rsatish orqali tanishtiriladi.

3-bosqich. Eslab qolish. Asarni bolalar eslab qolishlari uchun uni qayta o'qib berish, postanovka ko'rsatish, rasmlar nomoyish etish, didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

4-bosqich. O'yin qiziqarli o'tishi va uzoq davom etishi uchun o'yinga keraqli materiallar, kiyimlar tayorlab berish va shu bilan birga to'g'ri rahbarlik qilish kerak.

O'qituvchining yechimi: Bu ishni tarbiyachi bajaradi, katta guruhda esa tarbiyachi yordamida u bilan birgalikda bolalar bajarishadi. Tarbiyachi bir qancha ertakka doir rasmlar ko'rsatadi.

9-Keys bayoni. Maktabgacha ta'lim muassasasining mudiri Xilola Baxtiyarovna maktabgacha katta yoshidagi bolalar guruhiga tashrif buyurib, tarbiyachiga: "Mashg'ulotni yomon o'tkazmadingiz, biroq, metodik xatolar ko'p. Sizni kichik tarbiyachi lavozimiga o'tkazish kerak", – deb eshikni qattiq yopib chiqib ketdi.

Keys savoli. Sizning harakatlaringiz qanday bo'ladi?

Manba: O'zbekiston Respublikasida "Davlat maktabgacha Ta'lim muassasasi to'g'risida"gi Nizom, "Maktabgacha ta'lim "Bolajon" tayanch dasturi, "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi", "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi".

Tahlil: tarbiyachining faoliyati birgina mashg'ulot bilan baholanmaydi. Qolaversa, mashg'ulotning sifati bir necha mezonlar asosida, belgilangan tartibda chuqur tahlil etilishi lozim.

O'qituvchining yechimi: MTM rahbari muomala qoidalariga zid ish tutdi. Mashg'ulotning tashkil etilishi MTM jamoasi orasida muhokama qilinishi, yo'l qo'yilgan xatolar aniq ko'rsatilishi lozim. Lavozimni pasaytirish esa tarbiyachining xatti-harakati asosli bo'lganidagina amalga oshiriladi.

МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ МАВЗУЛАРИ

MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI:

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi

Teatr - saxnalashtirish faoliyatining shakllari.

Teatr - saxnalashtirish faoliyati prinsiplari

Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatining ahamiyati.

Turli yosh guruxlarda saxnalashtirish faoliyatining vazifalari

Saxnalashtirish faoliyati rivojlantirish vositasi sifatida

Saxnalashtirish faoliyatida bolalarda aktyorlik qobiliyatini rivojlantirish

Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining asosiy kriteriyalari

Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatini tashkil qilish shakllari

Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish

Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi mazmuni

Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi usullari

Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lish tarixi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarni qo'g'irchoq teatri vositasida shakllantirish mazmuni

Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoq teatrini tashkil etish va qo'g'irchoq yasash usullari.

Qo'g'irchoq teatri turlari.

Stol teatr.

Soya teatri.

Barmoq teatri.

Qo'g'irchoq – qo'lqop.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan referatlar va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

ГЛОССАРИЙ

Maktabgacha ta'lim – bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Didaktik tizim – (yunoncha «sistema» – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktik o'yin – o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida bolaning bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

Jamoa – (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimai bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi) – bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoa an'analari – jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Idrok – aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha adapto – moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Izohlash – tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli.

Individ - (lotincha «individuum» bo'linmas, yagona, alohida degan ma'nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamida tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik – shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

Iqtisodiy tarbiya – bolalarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oilaviy byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Iqtisodiy ta'lim – bolalarga xo'jalik yuritish tizimi (oilaviy byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Yosh xususiyatlari – muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha. Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

Uzluksiz ta'lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Korreksiya - (yunoncha «correctio» - tuzatish) – pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.

Ko'nikma – olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

Ko'rgazmali metodlar – predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) – bolalarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Madaniyat - («kultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun - (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida bola tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Materialni og'zaki bayon qilish metodlari – o'quv materialing mohiyatini ozg'aki (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo'llaniluvchi usullar.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari - muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Metod - yunoncha tarjimai «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi.

Metodika - (fan sifatida) – xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati.

Asosiy adabiyotlar:

№	Muallif	Adabiyot nomi	Nashr yili	Adabiyotning ARMdagi shifri	Adabiyot turi	Adabiyotning ARMdagi inventar raqami	ARMdagi son
1	Xasanboyeva O.U. va boshq	Maktabgacha ta'lim pedagogikasi	T.: Ilm ziyo. 2012	74.10 M-20	O'quv qo'llanma	92.36.88	10
2	Sodiqova Sh.A	Maktabgacha pedagogika	T.: Tafakkur bo'stoni 2013	74.100.2	Darslik	U-7623/1	30
3	N.Kayumova	Maktabgacha pedagogika	T.: TDPU 2013	74.1 K-26	O'quv qo'llanma	U-7553/3	15
4	O.Xasanboeva va boshq	Oila pedagogikasi	T.: "Aloqachi", 2007 y.	74.90 O-38	O'quv qo'llanma	Y-6659	60

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O.Xasanboeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: "Aloqachi", 2007 y.
2. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma. T.: 2001.
3. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat", 2013
4. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Fan va texnologiya. -T.: 2008.
5. M.Sh.Nurmatova, Sh.T.Xasanova, D.E.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. Toshkent 2010. Cho'lpon nashriyoti.
6. M.Jumaboyev. O'zbek bolalar adabiyoti. Darslik. O'zbekiston. 2002.
7. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. O'zbek yozuvchilar uyushmasi. 2006.

Elektron ta'lim resurslari

8. www.tdpu.uz
9. www.pedagog.uz
10. www.ziynet.uz

